YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON QADRI AZIZ!

YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 14-fevral, № 5-6 (8024)

IQTISOD QILISH REJASI ISHLAB CHIQARISHNI KAMAYTIRISH YOKI QAYSIDIR XARAJATNI KEYINROQQA SURISH HISOBIDAN EMAS, BALKI BIR BIRLIK MAHSULOT TANNARXINI QISQARTIRISH ORQALI TA’MINLANISHI SHART.

Shavkat MIRZIYOYEV

YUQORI IQTISODIY O‘SISH SUR’ATLARINI TA’MINLASH BO‘YICHA VAZIFALAR BELGILAB OLINDI

13-fevral kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida tarmoq va hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash bo‘yicha asosiy vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilish avvalida o‘tgan yilgi makroiqtisodiy natijalar qayd etildi. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmi 7,7 foizga o‘sib, 147 milliard dollardan oshdi. Iqtisodiy o‘sishning yarmidan ko‘pi xizmatlar hisobiga ta’minlandi. Qishloq xo‘jaligida gektaridan o‘rtacha daromad 4,5 mingdan 5 ming dollarga ko‘paydi, mehnat unumdorligi 4,7 foizga oshdi.

Iqtisodiyotga ilg‘or, energiya tejamkor texnologiyalar kirib kelayotgani hamda yuqori qo‘shilgan qiymat beradigan loyihalar ko‘payib borayotgani natijasida bir yil ichida bir dollarlik qo‘shilgan qiymat yaratishga sarflangan energiya xarajatlari 15 foizga kamaydi.

Prezidentimiz 2026-yil uchun belgilangan ko‘rsatkichlarga to‘xtalib, 6,6 foizli iqtisodiy o‘sish orqali yalpi ichki mahsulot hajmini 167 milliard dollarga yetkazish rejasi geosiyosiy vaziyat va iqtisodiy tebranishlarni inobatga olgan holda shakllantirilgan ehtiyotkor prognoz ekanini ta’kidladi.

Shu bilan birga, har bir vazir, hokim va tarmoq rahbari sohasiga yangicha boshqaruv olib kirib, resurslardan samarali foydalansa, an’anaviy eksport bozorlariga bog‘lanib qolmasdan yangi yo‘nalishlar ochsa, raqamlashtirish va sun’iy intellekt bo‘yicha mutaxassislarni jamlab, innovatsiyalar kiritsa, yoshlarni jalb etib, “startap klub”lar tashkil etsa, iqtisodiy o‘sishni yanada yuqori sur’atlarda ta’minlash uchun barcha imkoniyatlar borligi ko‘rsatib o‘tildi.

Yig‘ilishda strategik korxonalar samaradorligi va xarajatlarni qisqartirish masalalari ham atroflicha muhokama qilindi.

Milliy investitsiya jamg‘armasini boshqarishga jalb etilgan “Franklin Templeton” kompaniyasi tahliliga ko‘ra, korporativ madaniyatni kuchaytirish, logistika, raqamlashtirish va energiya samaradorligida katta zaxiralar mavjudligi qayd etildi. 19 ta strategik korxona rahbarlariga xarid tizimi, logistika, raqamlashtirish va energiya samaradorligi bo‘yicha keskin choralar ko‘rib, tannarxni 10–15 foizga qisqartirish vazifasi qo‘yildi.

– *Iqtisod qilish rejasi ishlab chiqarishni kamaytirish hisobidan emas, balki mahsulot tannarxini qisqartirish orqali ta’minlanishi shart,* – dedi Prezidentimiz.

Shuningdek,strategikkorxonalarni“Yagona g‘aznachilik” axborot tizimi bilan qamrab olish, xaridlarni risk-tahlil asosida toifalash orqali samarasiz xarajatlarga chek qo‘yish muhimligi ta’kidlandi.

Hududiy sanoatni rivojlantirishdagi kamchiliklar keskin tanqid qilindi. Uch yilda respublika sanoati 21 foiz o‘sgan bo‘lsa-da, qator tumanlarda bu ko‘rsatkich 10 foizga ham yetmagani, ayrim hududlarda kredit resurslari va investitsiyalarning o‘sishi sanoat o‘sishiga mutanosib ta’sir ko‘rsatmayotgani ko‘rsatib o‘tildi.

Viloyat hokimlarining birinchi o‘rinbosarlariga 12 ta tumanga borib, bir oy joyida ishlash, ishlab chiqarishi pasaygan korxonalarni “oyoqqa turg‘azish” va ushbu tumanlarda sanoat o‘sishini ta’minlash vazifasi qo‘yildi.

Umuman, respublika sanoatini kamida 8,5 foizga o‘stirish bo‘yicha tarmoqbay va hududbay rejalarni tasdiqlash, birinchi chorak yakunida aniqlangan muammolar va ularning yechimiga qarab, rahbarlar faoliyatiga baho berish belgilandi.

Yurtimizda yiliga 650 ming dona avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega 4 ta yirik korxona mavjudligi, bu yil 300 dan ziyod mahalliy korxonalar bilan kooperatsiya asosida yana 763 ta detal ishlab chiqarishni boshlash hamda avtomobil ishlab chiqarishni 510 mingtaga yetkazish zarurligi ta’kidlandi. Aholi talabini rag‘batlantirish maqsadida avtokredit stavkalarini pasaytirish va hajmini oshirish choralarini ko‘rish topshirildi.

Investitsiyalarni jalb etish va loyihalarni samarali amalga oshirish bo‘yicha yangi boshqaruv yondashuvlari belgilandi.

Joriy yil 50 milliard dollar xorijiy investitsiya olib kelish rejasi qo‘yilgani, yangi loyihalar birinchi navbatda yuqori qo‘shilgan qiymatli va eksportbop mahsulot ishlab chiqarishga, resurslardan samarali foydalanish hamda yuqori daromadli ish o‘rinlari yaratishga xizmat qilishi zarurligi ta’kidlandi.

Vazirlar va hokimlarga 2026-yilgi investitsiya dasturiga kiritilayotgan har bir loyihaning bozori, eksporti, qo‘shilgan qiymati va yaratadigan ish o‘rinlarini to‘liq tahlil qilish topshirildi.

Endilikda investitsiya loyihalari bilan ishlashda loyihani ishga tushirish bilan cheklanib qolmasdan, uning to‘liq ishlashi, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishi va tashqi bozorga chiqishi bo‘yicha ham qat’iy nazorat o‘rnatiladi. Shu maqsadda dasturga kirgan har bir loyihani ishga tushgandan keyin uch yil davomida monitoring qiladigan “Yagona milliy loyiha boshqaruvi” platformasi yaratiladi.

O‘tgan yili turli tashkiliy muammolar sabab 55 ta yirik loyiha kechikkani qayd etilib, bu yil qiymati 165 milliard dollarlik 377 ta strategik loyiha alohida nazoratga olinishi belgilandi.

Shuningdek, xorijiy tashriflar doirasida 135 milliard dollarlik kelishuvlarga erishilgani, joriy yilning o‘zida Turkiya bilan 9 milliard, Pokiston bilan 1 milliard 428 million dollarlik investitsiya bitimlari imzolangani ma’lum qilindi.

Investitsiyalarning ko‘payishi hisobiga qurilish hajmini oshirish vazifasi qo‘yildi. Mutasaddilarga joriy yilgi qurilish hajmini 400 trillion so‘mga olib chiqib, sohada kamida 17 foiz o‘sishni ta’minlash topshirildi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi uchun budjetdan 40 trillion so‘m ajratilayotgani qurilish, qurilish materiali, metallurgiya va elektrotexnika korxonalari uchun katta bozor ekani qayd etildi.

Shu bilan birga, hududlardagi “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyalari nazoratini kuchaytirish, Qoraqalpog‘iston, Samarqand va Farg‘onada buyurtmachi xizmatlariga tajriba tariqasida xususiy sektorni jalb qilish muhimligi ta’kidlandi.



Energiya samaradorligini oshirish masalalari bo‘yicha ham aniq ko‘rsatmalar berildi.

Kichik va o‘rta korxonalarning yillik energiya iste’moli kattaligi hisobga olinib, bu toifadagi korxonalarda energiya samaradorlik bo‘yicha yangicha tizim joriy etilishi va uch yillik dastur ishlab chiqilishi belgilandi. 2026-yilda kichik va o‘rta korxonalarda 100 million kub metr gaz va 500 million kilovatt-soat elektrni tejash choralarini ko‘rish muhimligi qayd etildi.

Shuningdek, respublikadagi 917 mingta yoritish chiroqlarining yiliga 330 million kilovatt-soat elektr sarflayotgani va kunduz kuni ham yoniq qolish holatlari uchrayotgani ko‘rsatilib, yoritish ustunlariga kichik quyosh paneli, batareya hamda kun yorishishiga qarab, o‘zi o‘chib-yonadigan datchik o‘rnatishni boshlash topshirildi.

Yig‘ilishda davlat xaridlarida mahalliy ishlab chiqaruvchilar ulushini oshirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratildi.

Qayd etilganidek, 300 trillion so‘mlik davlat xaridlarida mahalliy mahsulotlar ulushi 68 foizga yetgan bo‘lsa-da, Olmaliq kombinati, “O‘ztransgaz”, “Milliy elektr tarmoqlari”, “Uzbekistan Airports” va “O‘zbekiston havo yo‘llari” tizimlarida bu ko‘rsatkich 40 foizga ham yetmayotgani ko‘rsatib o‘tildi. Shuningdek, tadbirkorlar davlat xaridi, ekspertiza va sertifikatlash jarayonlarida byurokratiya ko‘pligi, ayrim rahbarlar esa “chet elniki sifatliroq” degan eski qarashdan hali ham voz kechmayotganini aytmoqda.

Endi vazirlar, tarmoq rahbarlari va hokimlar har bir loyihada muzokara, tender, qurilish hamda xomashyo ta’minotining barcha bosqichlarida mahalliy mahsulotlar ulushini ko‘paytirishga shaxsan javob berishi belgilandi.

Iqtisodiy o‘sishni tashqi bozorlar hisobidan ta’minlash masalasi yig‘ilishning alohida yo‘nalishi bo‘ldi.

Prezidentimiz “ichki bozordagi talabning o‘zi bilan yuqori iqtisodiy o‘sishni ta’minlab bo‘lmasligi”ni ta’kidlab, vazirlar, tarmoq rahbarlari va hokimlarning asosiy vazifasi yangi mahsulotlar bilan yangi bozorlarga kirib borish zarurligini qayd etdi.

O‘tgan yili eksport 22 foizga o‘sib, 24 milliard dollarga yetgan bo‘lsa-da, ko‘p rahbarlar eksportda eskicha ish uslubidan voz kecha olmayotgani misollar bilan ko‘rsatib o‘tildi. Endilikda eksport bo‘yicha talab faqat hajm emas, balki yangi mahsulot va yangi bozorlar bo‘yicha ham bo‘lishi belgilandi.

Ichki bozorda narx-navo barqarorligini ta’minlash, inflyatsiyaga ta’sir qiluvchi omillarni oldindan aniqlab, amaliy yechim topish vazifalari ham belgilab berildi.

Yanvar oyida yillik inflyatsiya 7,2 foizni tashkil etgani, inflyatsiyaning 45 foizi oziq-ovqat mahsulotlari hisobiga, ayniqsa, 13 foizi go‘sht narxi hisobidan shakllangani qayd etildi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Tarmoq bozorlari va mehnat unumdorligi markaziga inflyatsiya bo‘yicha ichki va tashqi xatarlarni oldindan aniqlab borish, har hafta tuman va shahar bozorlarini tahlil qilish, talab prognozini shakllantirish hamda har chorakda asosiy oziq-ovqat mahsulotlari balansini ishlab chiqish vazifasi yuklatildi.

Keyingi haftadan muborak Ramazon oyi boshlanishi munosabati bilan ichki bozorlarda narx-navo barqarorligini ta’minlash har qachongidan ham muhim ekani ta’kidlanib, dehqon bozorlari va yirik savdo komplekslarida arzonlashgan oziq-ovqat yarmarkalarini boshlash bo‘yicha topshiriq berildi.

Qishloq xo‘jaligida ham narx barqarorligini ta’minlash va aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan vazifalar ko‘rsatib o‘tildi.

Go‘shtda importga qaramlikni qisqartirish uchun ozuqa bazasini mustahkamlash zarurligi qayd etildi. Muborak tumanida 5 ming gektar yer foydalanishga kiritilib, makkajo‘xori ekish boshlangani namuna sifatida keltirildi. Joriy yil qo‘shimcha 60 ming gektarda shu ishlarni tashkil qilish topshirildi. Bu orqali qo‘shimcha 350 ming chorva uchun kafolatlangan ozuqa bazasi yaratilishi ta’kidlandi.

Shuningdek, o‘tgan yili 772 ming tonna kartoshka import qilingani qayd etilib, joriy yilda 4,5 million tonna kartoshka hosili olish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Yig‘ilishda tarmoq va hududlar rahbarlarining hisobotlari tinglandi.

Sarvinoz SHERALIYEVA tayyorladi.

NAVOIYGA EHTIROM



ALISHER NAVOIY TAVALLUDINING 585 YILLIGI KENG NISHONLANDI

Yer yuzida har kuni turli mamlakatlarda millionlab insonlar dunyoga keladi. Ular hayoti davomida o‘zi sevgan, qiziqqan kasbning yetuk mutaxassisi bo‘lib yetishishga intiladilar. O‘z yurtiga, eliga qaysidir ma’noda chinakam xizmat qiladilar. Ammo taqdiri butun insoniyat bilan bog‘langan, xalq bilan hamnafas tarzda hayot kechiradigan benazir shaxslar har doim ham dunyoga kelavermaydi.

Shu ma’noda oradan 585 yil o‘tgan bo‘lsa-da, hali-hanuz jahon olimlarining tilidan tushmay kelayotgan, ko‘p sonli tadqiqotchilar hamda xalqning yuragidan joy olgan aziz siymo, buyuk mutafakkir, shoir va davlat arbobi Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning kelajak avlod, qolaversa, butun insoniyat uchun qilgan ezgu ishlari ming asrlar o‘tsa ham xotiralarda mudom barhayot.

Shu o‘rinda Bekobod tumanining “Qushtamg‘ali” mahallasida “Alisher Navoiy – buyuk davlat arbobi va ma’naviyatimiz gultoji” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazildi. Tadbirda tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari Dilshod Mirzaqulov, Xalq deputatlari tuman Kengashi deputati Gulchehra Risqulova, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi rahbari Nurali Jalilov, tuman Madaniyat bo‘limi xonandalari, mahalla ziyolilari, maktab o‘qituvchilari va o‘quvchilari ishtirok etdilar.

Tashkilotchilar g‘azal mulkining sultoni – Hazrat Alisher Navoiy bobomizning tavallud ayyomi munosabati bilan barcha ishtirokchilarni tabriklashgach, buyuk siymo haykali poyiga guldastalar qo‘yildi. She’riyat ixlosmandlari tomonidan Navoiy g‘azallari o‘qildi.

Tadbir tuman markazida joylashgan 16-son bolalar musiqa va san’at maktabida davom etdi. Madaniyat bo‘limi hamda bolalar musiqa va san’at maktabi xonandalari tomonidan tayyorlangan sahnaviy chiqishlar, milliy kuy-qo‘shiqlar tadbirga yanada ko‘tarinkilik va fayz baxsh etdi.

Navoiy shaxsiyati, uning adabiy-madaniy merosi yosh avlodni ma’naviy yetuklik, vatanparvarlik va yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilayotgani namoyish etilgan sahna ko‘rinishlarida o‘zining yorqin ifodasini topdi, desak ayni haqiqat bo‘ladi.

Tadbirda tuman hokimining maslahatchisi S.Suvonova, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi xodimlari, ustozlar hamda o‘quvchilar ishtirok etdilar. Shu kabi tadbirlar tumanimizning barcha mahalla guzarlarida, ta’lim muassasalarida, korxona-tashkilotlarda davom ettirildi.

O‘z muxbirimiz

ULUG‘LAR IZIDAN

HAZRAT NAVOIY HAYKALI POYIDA

Men bu joyga minglab keldim, yuzlab keldim,
Ko‘ngil kuyin tinglab keldim, bo‘zlab keldim,
Hazratdan so‘z qarz olib, so‘ng so‘zlab keldim,
Qaqrab keldim, yonib keldim, muzlab keldim,
Bu dargohga men o‘zimni izlab keldim,
Nigohingiz sel qildi-ku, oh, Navoiy,
So‘z mulkida sulton bobom shoh Navoiy.

Bobo, deyman, vujudlarim titroq tortib,
To‘zg‘ib yotgan dunyolarga bergan tartib,
Kaftidadir sayyoralar, Mashriq, Mag‘rib,
Hazrat sabab shu tuproqqa mehrim ortib,
Baxtiyorman poylarini ko‘zga surtib,
Kim ul zotga talpinsa gar yor Navoiy,
Iymondir ham, nomusdir, ham or Navoiy.

Ba’zan xursand, ba’zan esa nolib keldim,
Ba’zan nafsga mag‘lub, ba’zan g‘olib keldim,
G‘azal tinglab, dilga mehr solib keldim,
Eng pokiza tuyg‘ularim olib keldim,
Ul kishiga shogird tushib – tolib keldim,
Shogirdlarin har dam qo‘llar – bog‘ Navoiy,
Zabt etilmas yuksak cho‘qqi, tog‘ Navoiy.

Odam desam, yolg‘on bo‘lgay, farishtadir,
Yer-u ko‘kni bog‘lab turgan oq rishtadir,
Hazrat misol pok yashab, pok qarishni bil,
Muborak tut yodlarini – har ishda bil,
Pok nomlarin pok tutgay har qarichni bil,
Qabohatga qarshi turgan dov Navoiy,
Razolatning yo‘lin to‘sar g‘ov Navoiy.

Kel, nabiram, desa, bir bor boqib qo‘ysa,
G‘ayrat qilgin, deb, yelkamga qoqib qo‘ysa,
Nazar tashlab qalbimga o‘t yoqib qo‘ysa,
Yoshim daryo, qani unda oqib bo‘lsa,
Avliyo zot har onimdan voqif bo‘lsa,
Madad bo‘ling, yo, Hazratim, yo, Navoiy,
Olam butun – bor ekanki to Navoiy.

Etagidan mahkam tutib o‘tingayman,
Nazaridan qolmay deya yutingayman,
Ul siymoga sodiq navkar tutingayman,
Bir qarasam, to‘zg‘ib yotgan tutundayman,
Ismin aytsam, boshdan-oyoq butundayman,
Quyosh yang‘liq ziyo sochar nur Navoiy,
Ikki dunyo bahosi yo‘q dur Navoiy.

Baxtimiz shu – o‘zbek bo‘lib tug‘ilganmiz,
Yulduzlarga narvon qo‘yib, tug‘ilganmiz,
Dushman kelsa ko‘kragiga tig‘ ilganmiz,
Butun millat bir musht bo‘lib tugilganmiz,
Bor olamda Navoiy deb o‘qilganmiz –
El degandan, yurt degandan shod Navoiy,
Qaytib jahon ko‘rmas shunday zot Navoiy!

Jo‘rabek JAHON

ALISHER NAVOIY – DAVLAT ARBOBI

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy nafaqat shoir, shu bilan birga katta davlat arbobi, o‘z davrining katta tadbirkori ham edi. Alisherning otasi G‘iyosiddin temuriy shahzodaning saroyida xizmat qilib, shahar hokimi darajasiga erishgandi. O‘sha paytlari temuriy shahzodalardan birining ismi ham G‘iyosiddin edi. Ana shu temuriy G‘iyosiddin savlati oldida qomatimi, yoshimi kichikligidan uning laqabi G‘iyosiddin kichkina bo‘ldi. Hokimlik payti o‘g‘il ko‘rdi va uning ismini davlat boshqaruvchisi bo‘lsin, degan niyatda Nizomiddin deya atadi.

Yosh Nizomiddin olti yoshga yetganida Xurosonning hokimi vafot etib, Hirot notinchlandi. G‘iyosiddin kichkina oilasi tinchini o‘ylab, qirq kilometr olisdagi Qum shahriga ko‘chib ketadi. O‘sha shaharda yetmish yoshli shayx va shoir Lutfiy yosh Nizomiddindan adabiy imtihon oladi va kelajakda bu boladan katta bir shoir yetishib chiqishini bashorat qiladi.

Xuroson taxtini egallagan temuriy shahzoda Abulqosim Bobur Hirotga qaytib kelgan G‘iyosiddin kichkinani saroy xizmatiga qabul qilib, yangi poytaxt – Mashhadga shahar hokimi etib tayinlaydi.

Alisher Navoiy – davlat arbobi. Unga bu jihat, iste’dod otasidan o‘tgan. Navoiyning bolalikdagi do‘sti, sulton Husayn Boyqaro Hirot taxtini egallagach, Navoiyni yoniga chaqirib olib, uning otasiga o‘zlariga tegishli bo‘lgan mol-mulklarini qaytarib beradi va o‘zini bosh vazir lavozimiga qo‘yadi.

Alisher Navoiy o‘z mol-mulki hisobidan masjid, madrasa, hammom, yo‘l va ko‘priklar qurdiradi. Hatto Sulton Husayn Boyqaro ham davlat xazinasi bo‘shab qolganida Navoiydan yordam olib turganligi manbalarda keltiriladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING POKISTON ISLOM RESPUBLIKASIGA DAVLAT TASHRIFI YAKUNLARI BO‘YICHA MULOHAZALAR



korxonalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish va kadrlarni birgalikda tayyorlash bo‘yicha kelishuvga erishildi. Oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashi faoliyatining yo‘lga qo‘yilgani alohida e’tiborga loyiq. Ushbu institut ikki tomonlama munosabatlarni aniq maqsadlar bilan tizimli va uzoq muddatli hamkorlikka yo‘l ochadi. Muzokaralar O‘zbekiston – Pokiston hamkorligining nechog‘liq ko‘p qirrali ekanini namoyon etdi. So‘nggi 8 yilda o‘zaro savdo hajmi 12 barobar o‘sdi, O‘zbekistonda Pokiston sarmoyasi ishtirokidagi 230 ta korxona faoliyat yuritmoqda, aviaqatnovlar kengaymoqda, bank va tadbirkorlik aloqalari mustahkamlanmoqda.

Tovar ayirboshlash hajmini hozirgi 500 million AQSH dollaridan 2 milliard dollargacha yetkazish bo‘yicha

Pokiston kompaniyalari O‘zbekistonda dori-darmon, biotexnologiyalar va tibbiyot jihozlarini mahalliylashtirish loyihalariga taklif etildi. Toshkent farmatsevtika parkida pokistonlik sarmoyadorlar uchun qulay sharoit yaratiladi. Xalqaro brendlar ostida tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini birgalikda ishlab chiqarish uchun katta imkoniyat mavjudligi ta’kidlandi.

O‘zbekiston tomoni to‘qimachilik korxonalarini ishonchli boshqaruvga berish va pokistonlik hamkorlar uchun alohida charm sanoati hududlarini tashkil etishga tayyor ekanini bildirdi. Logistika bo‘yicha aniq qadamlar belgilandi: joriy yil apreldan boshlab Karachiga yuk reyslari hamda Lahorga to‘g‘ridan to‘g‘ri yo‘lovchi parvozlarini yo‘lga qo‘yish rejalashtirilmoqda.

O‘ZBEKISTON – POKISTON: BOBURIYLAR MEROSIDAN XXI ASRDAGI STRATEGIK SHERIKLIKKACHA

Shu kunlarda axborot makonidagi asosiy mavzulardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Pokiston Islom Respublikasiga davlat tashrifi bo‘ldi. Ushbu tashrifni, hech ikkilanmay, tarixiy voqea deb atash mumkin. Chunki tashrif tarixi va madaniyati chuqur mushtarak bo‘lgan ikki xalq o‘rtasidagi munosabatlarda yangi va muhim sahifani ochmoqda.

Tarix va geosiyosat chorrahasida Pokiston o‘ziga xos taqdir va ulkan salohiyatga ega davlat. Bu mamlakat tarixi, shubhasiz, dunyo sivilizatsiyalarining chorrahasini eslatadi. Asrlar davomida bu hudud orqali karvon yo‘llari, qo‘shinlar, dinlar va madaniyatlar uchrashgan.

1947-yili tashkil topgan Pokiston bugun nafaqat Janubiy Osiyo, balki butun musulmon olamida muhim o‘rin tutadi. Indoneziyadan keyin musulmon aholisi soni bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinda turadi. Odam soni bo‘yicha beshinchi o‘rinni egallagan (aholisi 240 milliondan ortiq).

Mamlakatning yalpi ichki mahsuloti hajmi 400 milliard AQSH dollaridan ziyod. Shu bilan u dunyodagi 40 ta yirik iqtisodiyot qatoriga kiradi hamda raqamlashtirish, “yashil” energetika va infratuzilma sohalarida katta rejalarni amalga oshirmoqda.

Eng muhimi, Pokiston Janubiy va Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq hamda Xitoy o‘rtasida joylashgan. Muhim quruqlik va dengiz kommunikatsiyalarini nazorat qiladigan, mintaqalarni bog‘lovchi tabiiy ko‘prik vazifasini bajaradi.

Hozirgi murakkab geosiyosiy muhitda Pokistonning mustaqil va salmoqli ta’sirga ega davlat sifatidagi mavqeyi tobora ortib bormoqda. U 2025–2026-yillar uchun BMT Xavfsizlik kengashining doimiy bo‘lmagan a’zosi. Shuningdek, Islom hamkorlik tashkiloti, SHHT va boshqa yirik xalqaro tuzilmalarda faol ishtirok etmoqda.

Bugun Pokiston shakllanayotgan ko‘p qutbli dunyo arxitekturasining muhim tayanch markazlaridan biri sifatida ko‘rilmoqda.

Tarix zanjiri: Boburdan zamonaviy davrgacha

O‘zbekiston va Pokiston haqida so‘z yuritar ekanmiz, xalqlarimizni bog‘lab turgan ulug‘ shaxsni eslamaslik mumkin emas. Bu buyuk ajdodimiz, mutafakkir va boburiylar saltanati asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburdir. U XIX asr o‘rtalarigacha hind subqit’asini boshqargan qudratli sulolaga asos soldi. Nabirasi Akbar Lahorni saltanat poytaxtlaridan biriga aylantirdi. Boburiylar davriga oid Lahor qal’asi (Shohiqal’a), Shalimor bog‘lari, Badshohiy masjidi kabi me’moriy durdonalar UNESCOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan va Pokistonning asosiy ramzlaridandir.

“Boburnoma”ni qayta-qayta mutolaa qilar ekanman, Boburning hozirgi Pokiston hududiga tegishli o‘lkalar haqidagi fikrlariga doim e’tibor qaratardim. U bu zamin unumdorligi, suv manbalari mo‘lligi, bog‘-rog‘lar va ekinzorlar serobligi to‘g‘risida so‘z yuritgan. Shuningdek, Panjob viloyatining g‘oyat obod va gavjumligi, qishloq va shaharlarning deyarli uzluksiz bir-biriga tutashib ketgani haqida ham alohida qayd etgan.

Bu fikrlar XVI asrdayoq hozirgi Pokiston hududi kuch, boylik va strategik ahamiyat markazi sifatida qabul qilinganini ko‘rsatadi hamda nega aynan shu yerda boburiylar saltanati barpo etilganini tushuna boshlaymiz.

Bugun Bobur va sulolasi qoldirgan ma’naviy-ma’rifiy meros millionlab pokistonliklar qalbida yashab kelmoqda va bu ikki xalq uchun umumiy tarixiy xotira. Ana shu umumiy meros zamonaviy O‘zbekiston-Pokiston sherikligining mustahkam poydevoridir.

Yangi davr boshlanganini belgilovchi tashrif

Prezidentimizning 5-fevralda boshlangan davlat tashrifi dastlabki daqiqalardan boshlab yuksak hurmat va strategik ahamiyat muhitida o‘tdi. Bu qat’iy diplomatik protokol doirasidan ancha tashqariga chiqqan voqeaga aylandi. Aeroportda davlatimiz rahbarini Pokiston siyosiy doiralaridagi eng muhim ikki shaxs – Prezident Asif Ali Zardoriy va Bosh vazir Shahboz Sharif kutib olgani ham alohida ramziy ma’no kasb etdi. Mezbon mamlakat aziz mehmonni mana shunday kutib oldi.

Tashrif dasturi g‘oyat sermazmun va yuksak ahamiyatga ega bo‘ldi. U davlatimiz rahbarining “Global sanoat va mudofaa yechimlari” kompaniyasi qarorgohi tashrifi hamda Pokiston Mudofaa kuchlari Bosh qo‘mondoni Qurolli Kuchlarining quruqlikdagi qo‘shinlari qo‘mondoni, feldmarshal Asim Munir bilan uchrashuvdan boshlandi. Ushbu muloqot sifat jihatidan mutlaqo yangi ishonch darajasiga poydevor yaratdi: harbiy va harbiy-texnik hamkorlik bo‘yicha alohida “yo‘l xaritasi”ni tayyorlash, mudofaa ulkan va real maqsad qo‘yildi. Bu aniq yechimlar bilan mustahkamlandi: tovarlar ro‘yxatini kengaytirish, imtiyozli savdo, yangi fitosanitariya ruxsatnomalari. Qiymati taxminan 3,5 milliard dollarlik qo‘shma loyihalar portfeli qishloq xo‘jaligi va farmatsevtikadan tortib, geologiya va yengil sanoatgacha bo‘lgan muhim tarmoqlarni qamrab olgan.

Transport yo‘laklarini rivojlantirish alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Muzokaralar chog‘ida transafg‘on temir yo‘lini qurish loyihasini jadallashtirish, shuningdek, “Pokiston – Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston” transport yo‘lagini rivojlantirish muhimligi ta’kidlandi. Bularning barchasi mamlakatlarimizni Markaziy va Janubiy Osiyoni bog‘lovchi bo‘g‘inga aylantirmoqda. Butun mintaqa va undan tashqarida yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi mintaqalararo aloqalar ham muhim ahamiyatga ega. Buning ifodasi sifatida mahalliy hamkorlik uchun poydevor yaratuvchi hududlar forumi tashkil etildi.

Imtiyozli savdo, qishloq xo‘jaligi va raqamli texnologiyalardan tortib, yadro xavfsizligi, korrupsiya va giyohvandlik moddalari savdosiga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlikkacha bo‘lgan ko‘plab sohalarni qamrab oluvchi qo‘shma deklaratsiya hamda 30 ga yaqin muhim hujjat imzolandi.

Tashrif chog‘ida Islomobod shahridagi ko‘chalardan biriga Toshkent, yangi barpo etilayotgan bog‘ga Zahiriddin Muhammad Bobur nomining berilishiga bag‘ishlangan marosim o‘tkazildi. O‘zbekiston Prezidentiga Pokistonning oliy davlat mukofoti bo‘lmish “Nishoni Pokiston” ordeni, shuningdek, Pokiston Milliy fan va texnologiyalar universitetining faxriy doktori hamda professori unvonlari topshirildi.

Ishbilarmonlik dasturining cho‘qqisi “PEL”, “Engro”, “Fauji”, “Pakistan Steel Mills” kabi 300 dan ortiq yetakchi kompaniya ishtirokidagi qo‘shma biznes-forum, shuningdek, davlatimiz rahbarining Pokiston korporativ tuzilmasi yetakchilari bilan alohida uchrashuvi bo‘ldi. O‘zbekiston Prezidenti hamkorlik uchun aniq sohalarni taklif etdi: farmatsevtika va tibbiyot, yengil sanoat, kon-metallurgiya sohasi va geologiya, oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha hamkorlikni kengaytirish shular jumlasidan.

Pokiston biz uchun nimaga muhim?

Keling, endi bu mamlakat bilan hamkorlikni mustahkamlash nima uchun bu qadar muhimligini tahlil qilib ko‘raylik. Tashrif natijalari ikki tomonlama munosabatlar doirasidan ancha keng.

Birinchidan, logistika loyihalarini amalga oshirishda O‘zbekiston Pokiston portlari orqali xalqaro dengizlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Transafg‘on temir yo‘li va “Pokiston – Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston” koridori biz uchun strategik ahamiyatga ega. Ushbu loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, butun Yevrosiyoning geoiqtisodiy xaritasini o‘zgartira oladi.

Ikkinchidan, mintaqaviy xavfsizlik nuqtayi nazaridan yadro quroliga ega va armiya soni bo‘yicha dunyoda oltinchi o‘rinda turuvchi Pokiston bilan yaqinlashish bugungi beqaror dunyoda O‘zbekistonning mavqeyini mustahkamlashga muhim hissa qo‘shadi. Mudofaa sohasidagi hamda terrorizm, giyohvandlik moddalari savdosi va kibertahdidlarga qarshi kurashish bo‘yicha kelishuvlar zamonaviy muammolarga javob beradi. Qolaversa, terrorizmga qarshi kurash xalqaro kun tartibidagi asosiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Islomoboddagi masjidlardan birida sodir etilgan va 30 dan ortiq begunoh insonning hayotiga zomin bo‘lgan terrorchilik harakati buning yaqqol tasdig‘idir.

Dunyo beqarorlik, parchalanish va avvalgi ittifoqlarni qayta ko‘rib chiqish davrini boshdan kechirayotgan bugungi kunda Pokistonning mas’uliyatli mintaqaviy kuch sifatidagi mavqeyi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu mamlakat Janubiy Osiyo, Afg‘oniston, Hind okeani va Islom dunyosidagi jarayonlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa Islomobodni global muvozanatning muhim aktoriga aylantiradi.

Mamlakatlar rahbarlarining xohish-irodasi va yaqin do‘stona munosabatlari, umumiy tarixi hamda o‘zaro iqtisodiy manfaatlari bilan mustahkamlangan O‘zbekiston – Pokiston aloqalari yangi, strategik mazmun kasb etmoqda. Bu butun mintaqamiz tinchligi, barqarorligi va farovonligi uchun xizmat qiladi.

Sherzodxon QUDRATXO‘JA,
siyosiy fanlar doktori, professor,
O‘zbekiston Respublikasida
xizmat ko‘rsatgan jurnalist

Xayr va barokat oyi



RAMAZON OYI MUBORAK BO‘LSIN!

Bismillahir Rohmanir Rohiym! Alloh taologa bitmas-tuganmas hamd-u sanolar bo‘lsin. Payg‘ambarimizga mukammal va batamom salavot-u durudlar bo‘lsin!

Muborak Ramazon oyi Alloh taoloning barakatlari va rahm-shafqatiga boy oydir. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Ramazonni vasf etib, shunday marhamat qiladilar: **“Bu sabr oyi, uning mukofoti esa jannatdir”.** Bu muborak oyda musulmonlarga Alloh roziligi uchun mislsiz imkoniyatlar va baraka beriladi.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam**: “Ramazon kelsa, jannat eshiklari ochiladi, do‘zax eshiklari yopiladi, shaytonlar kishanlanadi”, deganlar.**

Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Termiziy rivoyat qilgan.

Imom Muslimning rivoyatida: “Rahmat eshiklari ochiladi, jahannam eshiklari yopiladi, shaytonlar kishanlanadi”, deyilgan.

Ramazon alohida xususiyatlarga ega oydir:

1. Ramazon Payg‘ambarimiz alayhissalomga Alloh taolodan birinchi vahiy kelgan oydir. Bu voqea 610-yili Ramazon oyida sodir bo‘lgan. Ramazon – bu Qur’oni Karim oyi.

2. Allohning Rasuli sollallohu alayhi vasallam marhamat qiladilar: “Yaxshi amallar natijasida odam shu oyda Alloh taologa yaqinlashsa, bu boshqa oyda farzini ado etganga tengdir. Ramazon oyida farzni ado etganga esa boshqa oyda qilingan farzga nisbatan yetmish farz mukofotini oladi. Bu oy sabr oyi, uning mukofoti esa – Jannatdir”.

3. “Bu oyning birinchi o‘n kunligi – Alloh taoloning marhamati, ikkinchisi kechirimi, uchinchisi do‘zaxdan qutqarishi. Ramazonda qulni ozod etganni Alloh taolo do‘zaxdan ozod etadi, iftorda ro‘zadorga suv berganni Alloh taolo qiyomat kuni Kavsar suvidan ichirtiradi va u Jannat eshigiga kirgunicha chanqamaydi”.

4. Ramazonda shaytonlar zanjirband etiladi, boshqa payt kabi yomonlik qilolmaydilar.

5. Ro‘za tutish Islom ustunlaridan biri. Ramazon oyida ro‘za tutishni Alloh taolo farz qilib bergan. Ro‘zadagi afzalliklarning sanog‘iga yetib bo‘lmaydi. Payg‘ambarimiz alayhissalom aytganlar: “Bu oyda har bir kishi ochlik nimaligini boshidan o‘tkazadi va beva-bechoralarga rahm-shafqatli bo‘ladilar. Bu oyda iymonli bandalarning rizqi kengayadi.

Ro‘zadorni taomlantirgan gunohlaridan forig‘ bo‘lib, do‘zaxdan ozod etiladi. U ro‘zador bilan teng mukofotlanadi. Bunda ro‘zadorning mukofoti ham kamaymaydi”.

6. Taroveh namozi – Ramazon oyida xufton farz namozidan keyin o‘qiladigan sunnat namozidir. Ro‘zaning birinchi tunidan boshlab o‘qiladi va oxirgi tunda tugatiladi. Taroveh namozini jamoa bilan masjidda o‘qish afzaldir.

7. Fitr sadaqasi – Ramazon oyining oxirida beriladigan farz sadaqadir. Fitr sadaqasini iyd-ul Ramazongacha berishga harakat qilish kerak.

8. Bu oyda shunday bir tun borki, u ming oydan ham ustundir. Bu tun qadr kechasidir. Alloh taolo marhamat qiladi**: “Albatta, Biz U (Qur’on)ni Qadr kechasida nozil qildik. Qadr kechasi ne ekanini senga nima bildirdi? Qadr kechasi ming oydan yaxshiroqdir.” (***Qadr surasi, 1–3-oyatlar).*

Laylatul qadr – Qadr kechasi Ramazonning uchinchi o‘n kunligiga to‘g‘ri kelishini ko‘pchilik ulamolar ta’kidlashgan.

Ramazon oyining har kunida qabul bo‘ladigan bir duo bor. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: *“Albatta, Ramazonning har kunida barcha musulmonlar uchun qabul bo‘ladigan bir duo bor”.*

Imom Ahmad, Bazzor va boshqalar rivoyati.

Agar bu duo ro‘za paytida, ayniqsa, iftor vaqtida qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytadilar: “Uch kishining duosi qaytarilmaydi: adolatli imom, ro‘zador to iftor qilgunicha va mazlumning duosi”.

Ibn Moja, Termiziy, Ahmad ibn Hanbal, Bayhaqiy, Ibn Hibbon, Tayolisiy, Ibn Xuzayma va Is’hoq ibn Rohavayhlar rivoyati.

Bu zikr qilinganlar Ramazon oyining barcha fazilatlarini to‘la qamrab ololmaydi, balki mazkur fazilatlar oldida daryodan ayrim tomchilar, xolos. Yo‘qsa, uning fazilat-u xususiyatlarini sanab adog‘iga yetkazish mushkuldir.

Alloh taolo bu muborak oyni, rahmat va mag‘firat oyi, do‘zaxdan najot beriladigan oy, duolar ijobat qilinadigan mohi Ramazon oyini barchamizga xayrli va barakotli qilsin! Uni taqvo ne’matiga erishishimiz uchun vasila qilsin!

Ulug‘bek BERDIYOROV,
Tuman bosh imom-xatibi

YO‘LLARNI YAXSHILASH YO‘LIDA...

Avtotransportlarda harakatlanish odamzodning kundalik ehtiyojlaridan biriga aylanib ulgurgan zamonda yashamoqdamiz. Harakatlanish uchun zarur bo‘lgan yo‘llar ham ushbu ehtiyojga munosib bo‘lishi darkor. Afsuski, yo‘llar masalasi bir necha yillardan beri respublika miqyosidagi muammolardan sanaladi. Aholining murojaatlarida ham, deputatlarning o‘rganishlarida ham abgor holatga kelgan yo‘llar muammosi asosiy mavzuga aylanib ulgurgan. Biroq so‘nggi yillarda ushbu muammoga hukumat doirasida jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Mahallalardagi ichki yo‘llar OPEN BUDJET tashabbus tanlovi asosida sezilarli darajada yangilangan bo‘lsa, davlat ahamiyatiga ega yo‘llar turli dasturlar asosida ta’mirlanib, foydalanishga yaroqli holga keltirildi.

O‘tgan 2025-yilda Bekobod tumanida yo‘llarni ta’mirlash masalasiga alohida e’tibor qaratildi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Agar raqamlarga nazar tashlasak, tumandagi umumfoydalanuv avtomobil yo‘llarining uzunligi 279 kilometrni tashkil etadi. Ulardan 73 kilometri davlat ahamiyatiga ega yo‘llar, 206 kilometri esa mahalliy ahamiyatga ega yo‘llardir.

Bekobod tumani yo‘llardan foydalanish korxonasi avtomobil yo‘llarini ta’mirlash ishlarida asosiy mas’ul tashkilot hisoblanadi. Ushbu korxona xodimlarining mehnati evaziga o‘tgan 2025-yil davomida katta ishlar amalga oshirildi. Masalan, Toshkent viloyati Avtomobil yo‘llari boshqarmasi tomonidan ajratilgan 5 milliard so‘m mablag‘ga asosan 4,474 kilometr uzunlikdagi umumfoydalanuv avtomobil yo‘llari ta’mirlangan bo‘lsa, Vazirlar Mahkamasining 489-sonli qarori asosida ajratilgan 30,665 milliard so‘mlik mablag‘ hisobidan 35,8 kilometr uzunlikdagi davlat va mahalliy ahamiyatga ega yo‘llar ta’mirdan chiqarildi.

Shu o‘rinda davlat ahamiyatiga ega va mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘llar atamalariga aniqlik kiritib olsak. Davlat ahamiyatiga ega yo‘llar viloyatlarni hamda tumanlarni bir-biri bilan bog‘laydigan yo‘llar bo‘lib, ularni ta’mirlash respublika miqyosidagi maxsus qarorlar bilan ta’minlanadi. Mahalliy ahamiyatga ega yo‘llar esa tuman hududidagi qishloqlarni bog‘lovchi yo‘llardir. 2025-yil davomida Bekobod tuma-

Jarayon



ni yo‘llardan foydalanish korxonasi Bo‘ka tumani chegarasidan Bekobod shahrigacha bo‘lgan oraliqdagi 11,078 kilometr uzunlikdagi davlat ahamiyatiga ega yo‘llarni ta’mirlagan bo‘lsa, asosiy ishni 24,688 kilometr mahalliy ahamiyatga ega yo‘llarni yangilashga qaratgan. Misol uchun, “Qo‘rg‘on” va “Ilg‘or” mahallalari oralig‘ida 1 kilometr 196 metr uzunlikdagi yo‘lga yangi asfalt qoplamasi yotqizilgan bo‘lsa, “Navbahor” hududi qishloqlarini bog‘lovchi 2 kilometr-u 286 metr yo‘l ham yangidan asfaltlandi.

Bekobod shahridan boshlanib “O‘zbekiston” va “Mallaboy” mahallalari orqali Zafar shaharchasiga eltadigan yo‘llarning ko‘p qismi shikastlangan, abgor holatda bo‘lgani bir necha yillardan beri avtomobil egalarining shikoyatlariga sabab bo‘layotgandi. Bu muammo ham yechim topib, notekis hududlarga 5 kilometr-u 600 metr yangi asfalt qoplamalari yotqizildi. Yangihayot – Parchayuz – Mallaboy avtomobil yo‘lidagi xuddi shunday muammo ham bartaraf etilib, 3 kilometrdan ziyod uzunlikdagi yo‘l asfaltlandi. Yo‘llarni ta’mirlash ishlarining natijasini “Yangibozor”, “Hakimovul” va “Qolg‘ansir” qishloqlari aholisining kayfiyatlarida ham sezish mumkin. Asosiy ish va katta mablag‘ shu hududlarga yo‘naltirilib, umumiy hisobda 11 kilometr-u 880 metr yo‘l yangi asfalt bilan qoplandi. Ortib qolgan ozgina mablag‘dan ham unumli foydalanilib, “Saryuz” mahallasiga eltadigan yo‘lning 730 metr joyi ta’mirlandi.

“2026-yil uchun ham rejalarimiz katta, – deydi Bekobod tumani yo‘llardan foydalanish korxonasi rahbari B.Husanov. – Tumanimizda yana 56 kilometr ta’mirtalab yo‘llarimiz bor. Bu yilgi ajratiladigan mablag‘ga qarab, imkon qadar ko‘proq hududni ta’mirlashni reja qilganmiz”.

Qadimdan bir naql bor: “Yo‘l qurgan savob”. Shunday ekan, mutassadilarimiz aholining, avtomobildan foydalanuvchilarning og‘irini yengil, yo‘lini ravon, hayotini farovon qilishga bel bog‘laganlar.

Madamin BOYMATOV

Navoiy saboqlari

ALISHER NAVOIY – MILLATIMIZNING BOQIY MURABBIYSI

Alisher Navoiy Sharq Renessansining yirik namoyandasi sifatida jahon sivilizatsiyasi tarixida alohida o‘rin tutgan yorqin shaxs. U o‘zining gumanistik g‘oyalari, badiiy-falsafiy qarashlari, o‘lmas she’riy asarlari bilan insoniyat tafakkuri rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk shoir va mutafakkirdir. Uning adabiy merosi nihoyatda ulkan va serqirra. Yettita yirik devon va beshta dostondan iborat “Xamsa”ning o‘ziyoq uning dahosi nechog‘lik yuksak ekanligini ko‘rsatib turadi. Uning qalamiga mansub dostonlar va qasidalar, ilmiy va didaktik asarlar asrlar osha bugungi kunlarda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmasdan kelmoqda. Sharq adabiyotining deyarli to‘liq 20 janrida ijod etgan, jami she’riy satrlari yuz mingdan ortiq bunday shoir jahon adabiyotida sanoqli, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Insonni har tomonlama yetuk, barkamol va bag‘rikeng, yurtni tinch va obod, raiyatning tinchligi va farovonligini ta’minlash, turli xalqlarni o‘zaro do‘stlik va hamjihatlikka, ezgu maqsadlar yo‘lida hamkorlikka chaqirish – mutafakkir ijodining asosiy leytmotivini tashkil etadi. Bu g‘oyalar, ayniqsa, Navoiy “Xamsa”siga kiritilgan dostonlar turkumida badiiy-falsafiy jihatdan benihoya ta’sirchan, betakror she’riy pardalarda ifodalangan bo‘lgani uchun ham u jahon adabiyotining noyob obidalaridan biriga aylandi.

Darhaqiqat, Navoiyning har bir satrida ezgulik, bag‘rikenglik, tinchlikka chorlov, insonlar o‘rtasida mehr-oqibat, do‘stlik va o‘zaro hamkorlikka da’vat o‘zak o‘qi bo‘lgani uchun ham ushbu g‘oyalar, nafaqat o‘z davri, balki bugungi, turli mintaqa va hududlarda o‘zaro nizolar avj olayotgan, axborot xurujlari tinch-osoyishta yashab kelayotgan xalqlarning totuvligiga raxna solayotgan, diniy qobiqlarga o‘ralgan iddaolar, hokimiyat uchun kurash birodarkushlik urushlarini keltirib chiqarayotgan tahlikali bir zamonda har qachongidan ko‘ra chuqurroq ahamiyat kasb etmoqda. Ulug‘ shoir barcha asarlarida urush va qon to‘kish olam inqiroziga sabab bo‘lishidan ogohlantiradi. U yozadi:

Bu go‘yo jahon ichra to‘fon erur,
Ki andin jahon ahli vayron erur.
Ne to‘fon, balo bahri chayqalmog‘i,
Jahon ahli suv ostig‘a qolmog‘i.
Ato bir taraf gar erur filmasal,
Yana jonib o‘lsa o‘g‘ulg‘a mahal.
Ikisig‘a kin o‘ti solg‘ay g‘azab,
Ul o‘t qon icharg‘a qilib tashnalab.
Qarindosh topsa qarindoshini,
Damodam tilab kesgali boshini.
Tushub oshnolarg‘a begonaliq,



Ketib hamnishinlarg‘a hamxonaliq.
Tutub fitna gardi xaloyiq ko‘zin,
Kim ul gard aro xalq topmay o‘zin.
Yaqin bilkim, ul kundur ofat kuni,
Ne ofat kunikim, qiyomat kuni!

Mazkur ma’noda Navoiyning *“Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlig‘, yor o‘lung bir-biringizgakim, erur yorlig‘ – ish!”* degan xitobi bugun ham butun insoniyatga, xalqaro hamjamiyatga ogohlikka da’vatdek yangramaydimi? Asrlar qa’ridan kelajakka yuzlanib, turli-tuman xatarlar va tahdidlarni oldindan ko‘ra bilgan, insoniyatni to‘g‘ri yo‘lga solishga intilgan bu buyuk mutafakkirning asarlarini o‘qisangiz, bugungi murakkab muammolar yechimiga yo‘l topgandek bo‘lasiz. Navoiy har bir urush keltirib chiqadigan holat faqat muzokara va tinchlik yo‘li bilan hal etilmog‘i kerakligi haqida aytgan quyidagi she’riy nasihatiga quloq tutaylik:

Xusho, iki ozodai nomurod
Ki, bir-birga zohir qilib ittihod.
Ne ul aylasa bu madoro qilib,
Anga ham bu rifq oshkora qilib.
Aning komi bu birga maqsud o‘lub,
Munung raddi ul birga mardud o‘lub...
Kerak ul nasihat dog‘i narmro‘y,
Ki, to mustami’ bo‘lmag‘ay tundxo‘y.
Ki tund o‘lsa ko‘p vahshat imkoni bor
Ki nosihga ham bim nuqsoni bor.
Nizo ichra mundoq marotibni bil,
Qila olmog‘ing chun yaqin bo‘ldi, qil!

(Ma’nosi: Qanday yaxshi ikki tomon ham, Bir-biri bilan ittifoq tuzsa. Biri murosa qilsa-yu, ikkinchisi do‘stlik o‘rnatishga xohish bildirsa. Bir-biriga tushuntirishda muloyim bo‘lishsa toki ikkinchi tomonni g‘azablantiradigan gap bo‘lmasa. G‘azablantirishning oqibati yomon bo‘ladi, Nasihat qiluvchiga ham zarari tegadi.)

Mutafakkir asarlarida adolat va insof, sabr va qanoat, ezgulik va saxovat, mehr va muruvvat qanchalik ulug‘lansa, kibr va havo, ta’ma va manmanlik bilan bog‘liq illatlar shu darajada qoralanadi. Nafsoniy lazzatlarga berilish, hayot mazmunini faqat shaxsiy manfaatlarni qondirishdan iborat deb bilish insonni tubanlashtiradi. Ilm o‘rganish – kamolot sari intilishning asosiy vositasidir. Ilm orqali inson borliqning mazmuni, hayotning mohiyati va umuminsoniy qadriyatlarning azaliyligi haqida mulohaza yuritadi, ularni tajribadan o‘tkazish orqali haqiqatni idrok etadi. Nafsoniy illatlar iskanjasidan qutuladi, zimmasidagi bosh vazifa – moddiy olam uchun mas’ullik, tabiat va jamiyatni taraqqiy ettirish burchini tushunib yetadi. Ushbu mas’uliyat va vazifa insonni yer yuzida kechayotgan barcha siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa jarayonlar, insoniyat taqdiriga xavf tug‘diruvchi omillarga loqayd bo‘lmaslik, ezgulik hukmronligiga erishuv uchun kurashga chorlaydi. “Ezgulik eng ulug‘ ishdir, – deydi Navoiy. – Butun dunyo xalqlari oldida isbotlangan haqiqat shuki, ezgulikning mukofoti ezgulikdir. Ezgulikni o‘zingga shior qil va uni abadiy baxtning garovi deb bil. Odamgarchilikning eng qimmat gavhari ezgulikdir.”

Alisher Navoiyni har kim har kun o‘qishi va uqishi zarur. Ayniqsa, bugungi davrda yurtimizda ulkan islohotlar o‘tkazilayotgan, Uchinchi Renessans davri poydevori yaratilayotgan tarixiy davrda Navoiyning o‘gitlari yoshlarning barkamol bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi.

Zotan, hazrat Navoiy umuminsoniy qadriyatlarni baralla kuylagan va o‘lmas g‘oyalari bilan bugungi davrimizda ham butun insoniyat uchun qadrli bo‘lgan ulkan so‘z san’atkori va mutafakkiridir.

Shuhrat SIROJIDDINOV,
navoiyshunos

Navoiyga bag‘ishlov

NAVOIYNI O‘QISH

Har bir kalla,
Har bir bosh
Jaholatdan qo‘rqishi kerak.
Har bir bola,
Har bir yosh
Navoiyni o‘qishi kerak.

Har bir ota,
Har bir mo‘ysafid
Umr hikmatlarin ko‘rsatib,
Nafs arqonlarin qirqishi kerak,
Farzandlari, nabirasiga
Navoiyni o‘qishi kerak.

Bir bolaga — butun mamlakat,
Ba’zan esa qirq kishi kerak.
Beshiklardan tushib bolalar
Navoiyni o‘qishi kerak.

Siz deysiz: Yo‘l topishi kerak,
Uy qurib, pul topishi kerak,
Yo‘q-yo‘q, u or qilishi kerak,
Navoiyni o‘qishi kerak!

Samarqand-u Buxoro, Termiz
To‘ylarida barchamiz jammiz.
Bizlar axir kimlardan kammiz?!
Elga olam olqishi kerak,
Olamga tik boqishi kerak,
Navoiyni o‘qishi kerak!

Beruniylar, ibn Sinolar,
Ulug‘beklar, Bobur Mirzolar
Qurib ketmish qanday binolar!
Yosh ko‘ngillar qalqishi kerak,
Navoiyni o‘qishi kerak!

Vatan azal bitta Vatandir,
U biz uchun so‘lmas chamandir.
Shul sababdan bola chog‘lardan,
Maysa chog‘lar, lola chog‘lardan
O‘zni urib, yulqishi kerak,
Navoiyni o‘qishi kerak,
Dilga nedir yuqishi kerak!

Sirojiddin SAYYID,
O‘zbekiston xalq shoiri

HAZRAT NAVOIYGA

Bolakay edingiz she’r bitgan paytda,
Ko‘klarga ko‘tarib turkiy tilini.
Lol qolib ulug‘ zot birgina baytga,
Alishmoq istagan she’riy mulkini.

Siz nazmiy saroyning taxtida sulton,
Gultoj qilib unga buyuk “Xamsa”ni.
Poyingizda yotgan zanjirband arslon,
Taxtga yo‘latmaydi sizdan o‘zgani.

G‘azal samosida tanhosiz, yakkash
Yuksakdasiz, hatto ko‘kdagi mohdan.
To‘rt qator she’r bitgan har bir qalamkash,
Duo so‘rab turar sizday podshohdan.

Yuksak tog‘ deyinmu yo tubsiz ummon,
Har misra olamning shahridan qimmat.
To tirik she’riyat, to tirik jahon,
Nazmga sultonsiz o‘zingiz, Hazrat.

Abdusamad JUMABOYEV

ALISHER NAVOIY: “VATAN TARKINI BIR NAFAS AYLAMA...”

Elparvarlik yo‘li

Shaxs kamolotida tarbiyaning o‘rni beqiyos. Ko‘hna Sharqda tarbiyaga hayot-mamot masalasi sifatida qaralganining boisi shunda. Modomiki, avlodlar kamoli tarbiya bilan chambarchas bog‘liq ekan, jamiyat taraqqiyotini undan ayro tasavvur etib bo‘lmasligi ayon. Mutafakkir ajdodlarimiz shuning uchun ham bu masalaga alohida e’tibor bergan. Ularning jahon badiiy tafakkuri xazinasidan munosib o‘rin olgan asarlarida tarbiyaning shaxs kamoloti, el ravnaqi va yurt istiqbolida tutgan o‘rni yuksak baholangan. Jumladan, Hazrat Alisher Navoiy asarlarida barcha zamonlar uchun dolzarb sanalgan bu muammo ohorli obraz va tutilmagan timsollar vositasida betakror badiiy talqin etilgan. Mana, buyuk shoir tarbiyaning ahamiyatini qanday vasf etadi:

Qatrag‘a chun tarbiyat etti sadaf,
El boshig‘a chiqqucha topti sharaf.

Xalqimizda “Sadafsiz dur bo‘lmas, tikansiz gul”, degan naql bor. Yomg‘ir yog‘ganida ayrim tomchilar sadafning ichiga tushadi va muayyan biologik, fiziologik jarayonlarni o‘tagach, qatra suv gavharga aylanadi. Holbuki, ayni shu tomchilar boshqa yerga tushishi, bug‘lanib yana havoga ko‘tarilishi yoki yerga singib ketishi ham mumkin edi. Ushbu baytda qatraning gavharga aylanishi va boshga qadalish darajasiga yetishi sadafning tarbiyasi sababli ekani betakror poetik ifodasini topgan. Sadaf – ota-ona yoki ustoz, qatra esa – farzand yoxud shogird timsoli. Sadafning tarbiyatisiz qatra hech qachon gavharga aylanmaydi. Ya’ni ota-ona tarbiyasini olmagan farzand yoki ustoz ta’limini olmagan shogird kamolga yetmog‘i mahol. Faqat buning uchun muayyan muddat talab etiladi. Gavharni qo‘liga olgan yoki boshiga qadagan odam, odatda, uning ko‘zni shunchalik quvontiradigan qimmatbaho ma’danga aylanmog‘i uchun qanday jarayonlarni boshdan kechirgani xususida o‘ylab ham o‘tirmaydi. Hayotda ham shunday. Komil insonni ko‘rganida hamma havas qiladi. Lekin u ana shu darajaga qanday mashaqqatlar bilan, kimlarning tarbiyasi evaziga erishgani har doim ham mushohada etilavermaydi. Buyuk shoir bu obrazli tasvir orqali shaxs tarbiyasida ota-ona va ustozning xizmati beqiyos ekaniga urg‘u beradi.

Quyoshdin tarbiyat gar topsa xoro,
Qilur yoqut ila la’l oshkoro.

Xoro – oddiy tosh. Yoqut – turli rangda, la’l esa, qizil tusda tovlanadigan qimmatbaho ma’dan. Xo‘sh, ular ko‘zni quvontiradigan, odamlarda estetik zavq uyg‘otadigan bu ranglarni qayerdan oladi? Hazrat Navoiy fikricha, bu – ularning quyoshdan tarbiyat topgani samarasi. Agar quyoshdan rang olmasa edi, ular oddiy chag‘ir toshligicha qolar, odamlarning qiziqishiga sabab bo‘lolmas edi. Tabiiyki, bu o‘rinda ham ulug‘ mutafakkir yoqut ila la’l haqida so‘z yuritar ekan, bayt zamiriga shaxs kamoloti xususidagi teran fikrlarini joylagan. Ya’ni inson kamolotini belgilovchi asosiy mezon – tarbiya. Chinakam tarbiyagina odamning imkoniyatlarini oshiradi, jamiyatga naf yetkazish borasidagi salohiyatini yuksaltiradi.

Buyuk ijodkor tarbiyaning ahamiyatini ana shunday ohorli talqin etish barobarida ushbu fazilatlarni mujassam etgan betakror obrazlar yaratdi. Bu obrazlar, besh yarim asrdan oshyaptiki, avlodlarga kamolot saboqlarini berib keladi. Hazrat Alisher Navoiy asarlarida kuylangan, bugungi kun uchun ham muhim bo‘lgan ana shunday fazilatlardan – vatanparvarlik va elparvarlik tuyg‘ulari talqiniga to‘xtalib o‘tish zarurati seziladi.

Vatanparvarlik – inson kamoloti sharti

Buyuk mutafakkir ijodida Vatan tushunchasi ikki ma’noda qo‘llanadi: birinchisi – asliy vatan va ikkinchisi – istiqomat makoni. Asliy vatan – jannat. Otamiz Odam va onamiz Havvoning ilk vatani jannat bo‘lgani ayon. Ular Alloh taoloning hukmiga itoatsizlik qilgach, yerga indirildi. Shundan buyon Odam farzandlari zimmasida asliy vatanga munosib bo‘lish uchun ilohiy amrga bo‘ysunmoq, Haq taologa muhabbat qo‘ymoq va e’tiqod hamda amalda sobit bo‘lmoq majburiyati bor. Istiqomat makoni sifatida vatan inson tug‘ilib o‘sgan yurt ma’nosini anglatadi. Hazrat Alisher Navoiy asarlarida Vatan tushunchasi har ikki ma’noda faol qo‘llanadi.

Vatanni sevmoq komillikning, iymonning muhim sharti ekaniga buyuk shoir ijodida alohida urg‘u berilgan. Mashhur hadis mazmunini go‘zal badiiy talqin etar ekan, avlodlarga: *“Vatan hubbi iymon nishonidurur”*, deya ta’lim bergani buning isbotidir. Shunday bo‘lgach, Vatanni g‘animlardan himoya qilmoq, zarur bo‘lsa, buning uchun kurashmoq har bir farzand uchun burchdir, majburiyatdir. Bu g‘oya “Saddi Iskandariy” dostonida quyidagicha ifodalangan:

Iyolu vatan uzra to joni bor,
Kishi harb etar toki imkoni bor.

“Iyol” so‘ziga “Navoiy asarlari lug‘ati”da: “Xotin, bola-chaqa; oila”, deya izoh berilgan. Demak, ulug‘ bobokalonimiz fikricha, vatanparvarlik oilasining osoyishtaligi, Vatanining tinchligi uchun bor imkonini ishga solib, joni boricha kurashmoqdir. Barcha zamonlar uchun dolzarb bunday fikrlar ulug‘ ijodkor asarlarida ko‘p uchraydi. Mana, shunday fikrlardan yana biri:

Vatan tarkini bir nafas aylama,
Yana ranji g‘urbat havas aylama.

Vatandan ayri tushmoq – ulkan fojia. Vatanni tark etmoq o‘zini mahnat-u zahmat girdobiga tashlamoq bilan barobardir. Buni hazrat Navoiy “ranji g‘urbatni havas aylash”, ya’ni g‘urbat mashaqqatlarini zimmasiga olish, deya ifoda etadi. Tarix shohid, ne-ne taqdirlar guvohlik beradi: inson Vatandan yiroqda hech qachon baxtiyor bo‘la olmaydi. “Hayrat ul-abror”da ulug‘ shoir ayni shu mohiyatni *“G‘urbat aro holi yamondin yamon, Har ne yo‘q andin yamon, andin yamon”*, deya talqin etgani bejiz emas.

Buyuk mutafakkirning mana bu o‘giti ham avlodlar uchun alohida qimmatga ega:

Musofir bo‘l, ammo vatan ichra bo‘l,
Tila xilvat-u anjuman ichra bo‘l.

Ushbu baytda buyuk Navoiy mansub xojagon-naqshbandiya tariqatining “Safar dar vatan” hamda “Xilvat dar anjuman” rashhalari mohiyati ifodalangan. “Safar dar vatan”ning zohiriy ma’nosi Vatan bo‘ylab sayr etish, uning hududlari: tog‘-u dashtlari-yu cho‘l-u biyobonlari, bog‘-u rog‘lari-yu daryo-yu dengizlari haqida tasavvurga ega bo‘lishni anglatadi. Bundan tashqari, safar orqali mashaqqatga sabrli bo‘lish, nafsni yengish va qanoat, sabot va matonat kabi sifatlarga ega bo‘lmoq nazarda tutiladi. Bu – moddiy safar. Ushbu rashhaning botiniy ma’nosi ma’naviy safar bilan bog‘liq. Unga ko‘ra, inson qalban quyi darajadan yuqori maqomga, noqis holatdan kamolot sari, yomonlik sifatidan yaxshilik fazilati tomon sayr qiladi. Ana shu botiniy safar – shaxs kamolotining muhim omili. “Xilvat dar anjuman” rashhasi esa insonning zohiran xalq ichida bo‘lsa-da, botinan Haq yodidan ayrilmasligini anglatadi. Buning yana bir ma’nosi odamning qo‘li ishda bo‘lsa ham, ko‘ngli Haq taolo zikri bilan mashg‘ulligi bo‘lib, kuchli e’tiqod va taqvo egasining jamiyat ishlarida ham faol bo‘lishi zaruratini bildiradi.

Yuqoridagi fikrlar buyuk shoir asarlarida Vatanga muhabbat tuyg‘usi teran irfoniy mazmun va go‘zal badiiy shakl uyg‘unligida, ta’sirli va ohorli ifodalanganidan dalolat beradi.

Elparvarlik – odamiylik mezoni

O‘zi mansub bo‘lgan ulug‘ elga mehr qo‘yish, el-ulus baxtini o‘z baxti, g‘amini o‘z g‘ami deb bilish shaxs kamolotining muhim shartlaridandir. Komillik timsoli bo‘lgan hazrat Alisher Navoiy asarlarida bu g‘oya yetakchi mavqeda turadi. Birgina misol:

Erur chun olam ichra, joh – foniy, yaxshi ot – boqiy,

Bas, el komin ravo ayla o‘zungni komron ko‘rgach.

Ya’ni mansab-martaba-yu mol-dunyo – vaqtinchalik, yaxshi nom esa abadiy. Shunday bo‘lgach, o‘zingni komron ko‘rgan, ya’ni baland mavqega erishgan chog‘ingda o‘zgalar hojatini ravo aylamoqni odat qil – mana, ulug‘ donishmand nima demoqchi! Aslida, haqiqiy elparvarlik ham shuni taqozo etadi. Lekin odamzod hayoti bir tekis kechmaydi. Hazrat Navoiy har doim ana shunday bir xil fikrlagan, mudom ayni tuyg‘uni his etgan desak, balki to‘g‘ri bo‘lmas. Negaki, hayot deganlari anchayin murakkab va ziddiyatlarga boy. Ulug‘ mutafakkir garchi hammaga baravar yaxshilik qilishni orzu etgan, imkon qadar bunga erishgan bo‘lsa-da, ba’zan qilgan yaxshiligi evaziga yomonlik, fidoyiligi uchun kimlardandir yuzsizlik ham ko‘rgan. Tabiiyki, bundan iztirob chekkan, ruhan ezilgan, qarama-qarshi tuyg‘ular girdobida qolgan. Tubandagi misralar ushbu fikrni tasdiqlaydi:



Oncha yuzsizlik ulustin ko‘rmisham, gar bersa dast,

Istaramkim, ko‘rmasam hargiz bani odam yuzin.

Hatto bir she’rida ulug‘ shoir *“Parim bo‘lsa uchib qochsam, ulusdin to qanotim bor, Qanotim kuysa uchmoqdin, yugursam to sabotim bor”*, deyishgacha borgan. Lekin hazrat Navoiyning buyukligi shundaki, oniy kayfiyatdagi bunday kechinmalarni iroda kuchi, matonat quvvati bilan yenga bilgan; hayot sinovlariga hikmat nazari bilan qaray olgan. Aytishga oson, bunga erishmoq o‘z-o‘zidan bo‘lmagani ayon. Buyuk mutafakkir ziddiyatli kechinmalar girdobidan chiqish uchun hikmatni nainki topgan, teran mazmun va betakror badiiyat uyg‘unligida she’rga ham aylantirgan:

Davr elida gar vafo yo‘q, sen vafo qilg‘il, valek

Kimni xushhol etsang, andin tut o‘zungga yuz malol.

Vafo ko‘rmaganing holda vafo qilmoq osonmi? Sendan ko‘p yaxshiliklar ko‘rib, xursandchilikdan necha bor ko‘zlarida o‘t chaqnagan odamdan yuz malol kelsa, buni qanday qabul qilish kerak? Bu savollarga javob bermoq anchayin mushkul ekani rost. Hazrat Alisher Navoiy necha bor ana shunday qiyin vaziyatlarga tushgani holda *“Davr elida gar vafo yo‘q, sen vafo qilg‘il”*, degan to‘xtamga kelgan. Ta’kidlash kerak, faqat buyuk siymolargina bunday xulosa chiqarishi mumkin. Faqat ulug‘largina hech bir evazsiz yaxshilik qilmoqqa qodir. Yurak yolqini bilan bitilgan mana bu so‘zlar ham buyuk shaxsiyatlargagina tan:

Ulusqa o‘t solur ersang meni burun o‘rta,

Nedinki o‘tni tutashturg‘oli kerak xoshok.

Ona xalqi oldida o‘zini bu qadar xokisor tutish – ulug‘lik nishonasi. Uning osoyishi va ravnaqi yo‘lida bunchalik fidoyi bo‘la olish – Tangrining inoyati. Elparvarlikda bundan ham yuksakroq darajaga erishmoq mahol! Ulusga fidoyilikning mezoni bo‘la oladigan bunday fikrga kelish uchun elga muhabbatning miqyosi qanchalar baland bo‘lishi kerak axir! Mana bu misralar mohiyatan yuqoridagi baytga har jihatdan hamohang:

Yuz jafo qilsa manga, bir qatla faryod aylamon,

Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram.

Bugungi va kelajak avlodlar ham o‘zi mansub bo‘lgan xalqqa mehr qo‘ymoq qanday bo‘lishini hazrat Navoiydek ulug‘lardan o‘rganishi kerak. Elparvarlik bobida ham buyuk bobokalonimiz mudom butun bashariyatga saboq berib kelayotir.

Asarlaridagi g‘oyalarga hayotda amal qilishi. “Makorim ul-axloq” asarida G‘iyosiddin Xondamirning yozishicha, “...maqtalgan Amirning *(ya’ni hazrat Navoiyning – N.J.)* cheksiz yaxshiliklari bu borliq olamda shuhrat topish yoki abadiy olamda katta savobga erishish uchun qilingan emasdi. Chunki bu dunyo va undagi narsalar ul zotning himmat nazarida bir somon xasichalik qimmatga ega emasdi. Ammo cheksiz ochiqqo‘llik va saxiylik xislatiga ega bo‘lishiga qaramasdan, hech qachon hech kimga bir arpa donichalik ham minnat qilmasdi”. Birgina dalil. Mazkur tarixiy manbada zikr etilishicha, hijriy 908-yilda (milodiy 1500-yilda) Sulton Husayn Boyqaro Mozandaron viloyati hokimi Muhammad Valibekka zarur xarajatlar uchun Hirot shahri va uning atrofidagi qishloqlar aholisidan yuz ming dinor miqdorida soliq yig‘ish haqida farmoni oliy beradi. Xalqqa og‘irlik yetmasligi kerakligini o‘ylagan hokim ushbu puldan teng yarmi – ellik ming dinorini yirik yer egalari hamda boylardan undirib to‘playdi. Soliqning qolganini Hirot shahri aholisidan yig‘ishga qaror qiladi. Biroq bu ishni Amir Alisher Navoiy maslahatisiz amalga oshira olmas edi. Ushbu rejani bayon qilganida hazrat Navoiy xalqqa o‘rinsiz soliq solishni davlat sha’niga munosib ko‘rmasligini aytib, mazkur mablag‘ni o‘z xususiy mulki hisobidan to‘lab yuboradi. Buyuk Navoiyning bu ishi futuvvatning Salmon Forsiy (r.a.) ta’riflagan: “... barchaga muruvvat ko‘rsatish va evaziga hech narsa talab qilmaslik” maqomining ayni o‘zidir.

Alisher Navoiy butun boyligini el-yurt manfaati yo‘liga sarf etgani, jumladan, 60 dan ortiq bino, 20 ga yaqin hovuz, 16 ko‘prik, 9 hammom, 20 masjid va ko‘plab madrasalar, xonaqohlar barpo ettirgani *(“Makorim ul-axloq”da bu inshootlar nomma-nom sanalgan – N.J.)*, umrining so‘ngida bor mulkini vaqf sifatida topshirgani ham ushbu fikrni tasdiqlaydi.

Zikr etilgan fakt va ma’lumotlar buyuk bobokalonimizning Vatan ravnaqi va el-ulus farovonligi yo‘lidagi fidoyiligiga doir ayrim misollar, xolos. Yana bir ibratli jihati, hazrat Alisher Navoiy o‘zining Vatan va Millat manfaati yo‘lidagi ishlarini minnat bo‘lmasligi uchun biror asarida qayd qilgan emas. G‘iyosiddin Xondamir kabi muarrix shogirdlari sharofati bilangina bu kabi qimmatli ma’lumotlar bugungi avlodgacha yetib kelgan.

Xulosa qilib aytganda, ulug‘ Alisher Navoiy asarlarida vatanparvarlik va elparvarlik g‘oyalari o‘quvchi qalbiga titroq soladigan, tafakkuriga ezgulik nurlarini ulashadigan darajada yorqin va ta’sirli ifodalangan. Hatto yomonlik qilganga ham yaxshilik qilish, vafosizga ham vafo ko‘rsatish – biz mansub bo‘lgan millatning asl tiynatida bor. Ushbu fazilat millatning buyuk farzandi hazrat Navoiy tabiatiga, ayniqsa, xos edi. Buyuk bobokalonimiz ana shu g‘oyalarni beqiyos badiiy talqin etish barobarida hayotda ham ularga og‘ishmay amal qilgan. Bu orqali kelajak nasllarga qay mavzularda qanday yozishdan tashqari, aytilgan va bitilgan so‘zga amal qilish zarurligi borasida ham yuksak namuna ko‘rsatgan. Galdagi vazifa ana shu oltindan ham qimmatli o‘gitlarni chuqur anglash va ulardan munosib ibrat olmoqdir.

Nurboy JABBOROV,
filologiya fanlari doktori,
professor

Mutolaa

XALQIMIZ KUTGAN ASAR



Hozirgi jadal taraqqiyot, globallashuv jarayonlari, qolaversa, taqdirning biz kutgan va kutmagan sinoatlari insoniyat oldiga uning kelajagini ta’minlaydigan, hayot sinovlarini munosib yengib o‘ta oladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdek zalvorli vazifani qo‘ymoqda. Bu, o‘z navbatida, bugun Yangi O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyat tamoyili ostida tarbiyalanayotgan yosh avlodning kelgusidagi axloqiy-ma’naviy qiyofasini, shakl-u shamoyilini shakllantirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sulton qalamiga mansub, o‘zida go‘zal axloqiy fazilatlarni jamlagan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirgan, ma’naviy barkamollik tarbiyasi bilan sug‘orilgan “Alisher Navoiy” asari bu borada dasturilamal bo‘ladigan kitoblardan sanaladi.

Aytish joizki, asarda yoshligidanoq o‘ta zukko, nodir fazilatli, g‘ayratshijoatli, shu bilan birga, jasur va sadoqatli navqiron Alisherdan tortib, so‘z qudrati, latofati va uning o‘zbekona ifodasini umumbashariyat mulkiga aylantira olgan, kishilar orasida ezgu ishlarga yo‘g‘rilgan ma’rifat ziyosini ulashgan donishmand zot – Nizomiddin Mir Alisher Navoiygacha bo‘lgan mazmundor va betakror umr yo‘li sodda tilda, mubolag‘asiz iboralar orqali ajoyib tarzda ochib berilgan.

Asar yana bir qator jihatlari bilan jozibador.

Birinchidan, asarning xalqchil tilda yozilganligi, oddiy o‘xshatish va go‘zal tashbehlarga boyligi: “Hiriy (Hirot nazarda tutilmoqda) tabiati shundoqki, har sahar ko‘hsordan yoqimli salqin shabada esadi. Kun qiziganida tek qolib, shom salqinida kentning qizg‘in havosini yana tog‘ etaklariga surib ketadi. Qazo farroshi o‘zining siymin supurgisi ila shimoldan adashib kelib qolgan bulutlarni osmon chetiga olib borib uydi, ular xuddi saroy tovusining yoyilgan parlariga o‘xshab qoldi. Tozalangan taraf esa botayotgan quyosh yog‘dulari bilan nafis yorishib, sariq-qizil tusda yallig‘landi”.

Ikkinchidan, bobokalon shoirimizning shoh asarlari ichra shoh baytlarining paydo bo‘lish tarixi va ularga berilgan tafsir, izohlarning keng qamrovliligi, ya’ni:

“Orazin yopqach ko‘zimdin sochilur har lahza yosh,
O‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz, nihon bo‘lgach quyosh...”

Lutfiy zavq-u hayratidan boshini sarak-sarak qilib:

– Mosholloh! Istasa, chumolini Sulaymonga nasihatchi aylar, istasa, dunyo shohligini bir uzukka joylar! – dedi keng peshonasidagi, ko‘z tegrasidagi ajinlari yoyilib, yuzi favqulodda nurli tus olib. – Istasa, Lutfiy yeta olmagan ma’nolarni shu yigitcha tilidan ayttirur! Men turkchada o‘zimni quyosh deb fahmlar edim, bu yoshimga qadar men orzulagan latofatni bu o‘g‘lon shul yoshida bitibdi. Valloh, agar muyassar bo‘lsa edi, o‘zimning o‘n-o‘n ikki ming turkiy va forsiy baytimni shu birgina g‘azalga almashtirardim va agar Alisherbek bunga ko‘nsa, bu ishimni zo‘r muvaffaqiyat deb hisoblardim!”.

Uchinchidan, keltirilayotgan voqealarning joyi, vaqti, vaziyati aniq manbaga asoslantirilganligi:

“G‘oziy sulton Husayn 906-yil, jumodul-avval oyining oxirlarida Astrobod yurishidan poytaxt sari qaytdi. Bu xabar Hirotga yetib kelgach, hazrat Alisher Navoiy bir qancha hamrohlari bilan birga sultonni kutib olish uchun yo‘lga chiqdi. Jumodul-oxir oyining ikkinchi (1501-yilning 2-yanvar) kuni u kishi Pariyon rabotiga tushib, kechani shu yerda o‘tkazdi”.

To‘rtinchidan, bugungi kitobxon, ayniqsa, yosh avlodga foydali pand-u nasihatlarning o‘ziga xos yo‘sinda mohirona bayon qilinganligi, ya’ni:

“Ey, qiblagohiga ehtirom ko‘rsatgan va uning oliy duosini olgan axloqli el! Vasfing borasida Alishering o‘z holicha so‘z aytdi va madhingni tugal ayladi. Uni xayr duosi bila yod qilgaysan va ruhini shu bilan shod qilgaysan! Bag‘ringdan yana yuzlab Alisherlaring yetishib chiqqaydirki, ular ham sening fazilatlaringni bulbulday madh etgaylar!

Toabad shon-sharafga burkangaysan! Toabad yer yuzida yashagaysan! Toabad ulug‘ingga ko‘rguzgan ehtiromingni zuryodingdan ko‘rgaysan!”

Yozuvchining mahorati shundaki, Alisher Navoiyning ma’naviy barkamollik borasidagi marvarid fikrlarini uning tafakkur ummonidagi komillik qirg‘og‘ining eng “sayoz” joyi, ya’ni oddiy xalq tushunadigan tilda go‘zal tarzda bayon eta olgan.

Yana bir e’tiborli holatga diqqatingizni jalb etmoqchiman. Asarda hazrat Navoiyning qadrdon do‘sti, hukmdor Husayn Boyqarodan saroy mulozimligi vazifasidan butunlay ketishga, qolgan umrini to‘liq ma’rifatli asarlar bitish yo‘lida sarflashga izn so‘rash jarayoni ta’sirchan yoritilgan. Husayn Mirzo do‘sti Alisher Navoiyga qarata aytgan javoblari esa undan-da latiflik bilan bayon etilgan.

Mana ushbu ibora: “Modomiki, siz mening mamlakatimda vatan tutib, muqim va turg‘un turar ekansiz, nimani iltimos qilsangiz, o‘sha narsa, albatta, ijobat izzatini topajak! Chunki bu mamlakat sizning muborak vujudingizdan xoli bo‘lsa, yuqori va quyi tabaqalarga mansub kishilarning barcha toifalari va guruhlarining hayotida notinchlik va beqarorlik yuz berishi aniq!”

Qarang, qanchalar ajoyib va ta’sirchan so‘zlar! Asarda bunday noyob tashbehlar, nodir topilmalar ko‘plab uchraydi.

***

Asarning mutafakkir shoir bilan uning ilk ustozlaridan biri Abu Abdullo Kulohiy qismi bayonida ustoz va shogird munosabatlariga doir quyidagi nodir misralar keltiriladi:

Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qutmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqqin yuz ganj ila.

Bu bilan Alisher Navoiy ustoz va shogird o‘rtasidagi munosabatlarni ruhiy yuksalish bilan bog‘laydi. Zotan, ustozning maqomi hamisha yuksak va darajasi ulug‘dir.

Aytish kerakki, ustozga nisbatan bitilgan bu ikki misra she’riy e’tirof hazrat Alisher Navoiyning o‘zlariga ham ko‘proq tegishlidir. Chunki o‘z davrida qancha-qancha shogirdlar yetishtirib, ularga nafaqat xolis yo‘l-yo‘riq ko‘rsatgan, balki tirikchilik masalasida ham insoniy ko‘magini berib kelgani tillarga doston bo‘lgani ayni haqiqat.

***

Xalqimizda “Nasib qilsa, kelar Shom-u Iroqdan, Nasib bo‘lmasa, ketar qosh-u qoboqdan”, degan maqol bor. Darhaqiqat, akademik Oybek domladan keyin qariyb bir asr muddat (80 yil!) davomida hech kim jur’at etolmagan muhtasham asar dunyo yuzini ko‘rdi. Uni nozik ta’b ila qog‘ozga tushirish mo‘tabar zamondoshimiz, qalami qalbidek pokiza sermahsul ijodkor Isajon Sultonga nasib etdi. Mana shu nasiblik zamirida men ilohiy hikmatni ko‘raman. Ilohiylik shundaki, nazarimda, mazkur asarning bitilishida hazrat Navoiyning shuuri, idroki har bir yozilajak satrga ma’naviy fayz baxshida etib turgandek, go‘yo...

***

Asarda umumturk adabiyoti namoyandasi Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning butun kuch va bilimini inson nomi, uning fazilatlarini ulug‘lashga sarflagani, o‘z g‘oyalariga sodiq qolib, doimo ko‘pchilik manfaatini shaxsiy hayotidan ustun qo‘ygani, boshqalarni ham shunday bo‘lishga da’vat etgani bayon etilgan. Shoir deydi:

Bu gulshan aro yo‘qdur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur yaxshilik bila qolsa ot.

Ha, Alisher Navoiy ijodi va dunyoqarashida tarbiya, ezgulik, ma’naviy barkamollik mavzularining o‘zagi bir nuqtada, ya’ni komil inson misolida atroflicha rivojlanadi, tahlil qilinadi, tatbiq etiladi.

Hassos yozuvchimiz Alisher Navoiyning olam va odam mohiyati xususidagi fikrlari ustida so‘z yuritarkan, asosiy nuqta – inson ko‘ngli va uni ulug‘lashga alohida e’tibor beradi. Zero, bobokalon shoirimiz ko‘ngilni Ka’badan ham ustun qo‘yadi.

Shoir fikricha, barcha huda-behuda fikrlar, nafs g‘uborlaridan poklangan, ko‘zgudek pokiza ko‘ngil ayvonida Yaratgan jamoli jilvalanadi. Hazrat yozadi:

Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka’ba vayron bo‘lsa, obod aylagay.

Bunda purma’no so‘zlar go‘zal tashbeh – o‘xshatish asosiga qurilgan, ya’ni bir siniq ko‘ngilni ko‘tarish Ka’bani obod qilishga tenglashtirilgan.

Mo‘tabar shoir insonlik mohiyati va uning ijtimoiy faoliyatini kishilarning bir-birlariga xolis yordamga kelishi, jamiyatga foydali kasb bilan shug‘ullanishi, xalqqa manfaati tegishida deb biladi. Uning o‘zi ham xalqqa qancha ko‘p foydang tegsa, bu narsaning o‘zingga foydasi ko‘proq, degan aqida bilan yashagan.

Shoir orzu qilgan ma’naviy barkamollik yo‘li – yetuk axloq-odob sohibi, jamiki yaxshi fazilatlarni o‘zida jamlagan, zamonasining foydali ilm va kasblarini chuqur egallagan, doimo raiyat ravnaqi, yurt xizmatiga shay turishdek sharafli mas’uliyat tuyg‘usi bilan yashagan, umumbashariy mohiyatga ega bo‘lgan Ma’naviy barkamol (komil) inson timsolidir.

Asarda Alisher Navoiy siymosini, uning aql-u zakovati, himmat-shijoatini sharaflash orqali hazratning ma’naviy poklanishi va komillikka erishish rutbalari atroflicha ochib berilgan. Zotan, ma’naviy barkamol inson timsoli poklik – halollik, to‘g‘rilik va samimiylikdir. Bag‘rikenglik – qo‘li ochiqlik, mehr-oqibatli bo‘lish va sabr-u qanoatdir. Bu toifa inson timsolining nafisligi shundaki, u bir mayoq – yo‘ldan adashganga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatadi. U bir ko‘zguki, unda har bir kishi o‘zini ko‘radi va taniydi. So‘ng esa ma’naviy dunyosini isloh qilishga tushadi.

***

Asarda olam va odam, shaxs va jamiyat, tiriklik mohiyati va inson umrining mazmuni, ma’rifat va razolat, sadoqat va xiyonat, do‘stlik va g‘animlik, savob va gunoh, halol va harom, xolislik va munofiqlik kabi azaliy va abadiy mavzular Navoiy umrining ma’naviy kamoloti vositasida turli ko‘rinishlarda oydinlashib boradi.

Hozir dunyo miqyosida global masalalardan biri – yosh avlodning kelajagiga hamda ta’lim-tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratilishini muqarrar qilib qo‘ymoqda. Bu kun sayin umuminsoniy qadriyatlar va adolatni targ‘ib etuvchi ezgulik g‘oyasi alohida ahamiyat kasb etayotganini anglatadi. Zero, barcha xalqlar bashariyat ayvonida hamnafas, hammaslak, taqdirdosh bo‘lib, ular bir-biridan ayro yashay olmaydilar.

Olam ahli bilingiz, ish emas dushmanlig‘,
Yor o‘lung bir-biringizgakim, erur yorlig‘ ish...

“Alisher Navoiy” asari so‘nggi yillarda mamlakatimizda ulug‘ bobomiz ijodini chuqur o‘rganish, asarlarini keng targ‘ib qilish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlarga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shildi. Umid qilamizki, mazkur nodir asarda keltirilgan bunyodkor g‘oyalar jamoatchilik va kitobxonlar uchun tengsiz ma’naviy meros vazifasini o‘taydi. O‘zbek tilining bor go‘zalligi va jozibasini o‘z asarlarida bayon etolgan hassos shoirning shaxsiyati ham komillikning namunasi, insoniylikning timsoli bo‘lib avloddan avlodga o‘rnak bo‘lib o‘tgusidir.

Obiddin MAHMUDOV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

SO‘ZDAN BUNYOD BO‘LGAN BUYUKLIK

ULUG‘ HAZRATGA

(Muvashshah)

***A**hli shuaro ichinda shoh-u sulton ul erur,*
***L**isonida imon-islom, ham pokdamon ul erur.*

***I**brat olgay do‘st-aqrabo kelgunicha intiho,*
***Sh**e’r, g‘azali dilga mudom rohi ravon ul erur.*

***Y**etti iqlim uni bilar, arab, ajam, faranglar,*
***R**us-u Chinda o‘sha akbar – misli Tyon-Shon ul erur.*


***N**azm gavharin tuzalmagan, aningdek yozolmagan,*
***A**nga hech kim yetolmagan, turkiy zabon ul erur.*

***V**o ajabki, besh dostoni, forsiydagi “Chor devon”i,*
***O**chun uzra ham karvon-u taxtiravon ul erur.*

***I**rodat ul zotga hurmat, nazm ila etay izzat,*
***Y**illar o‘tar, lek buzilmas dabariston* ul erur.*

*** dabariston – maktab.**

Karimqul MAVLONOV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi





“Millat ma’naviyatining ramzi” Sultonboy DEHQONOV olgan surat.

NAVOIYDAN NAVO TOPDIM

Navoiydan navo topdim, kuy topdim,
So‘z atalmish nur chaqnagan uy topdim.
Ta’rif yo‘qdir so‘z atalmish chiroyga,
Siz ham keling, do‘stim, nazmiy saroyga.
Hunarpesha Farhodlari bor uning,
Biz bilmagan sarhadlari bor uning.
Bir chashmakim, chanqog‘ingni bosgaysen,
O‘z qalbingga sevgi satrin yozgaysen.
Goh yurarsan Samarqand-u Hirotda,
Go‘yo uchgan kabi sheriy g‘irotda.
O‘rganishsin Chin, Amriqo me’mori,
Mashhur erur “Iskandarning devori”.
Faqat undan yaxshilikni toparsan,
Yomonlikning yo‘lin butkul yoparsan.
So‘z durlarin yuragingga taqib ol,
“Xazoniy ul-maoniy”ni chaqib ol.
Bul hikmatni anglay olsang, yorliq ish,
Dil yayraydi, unutilar g‘am-tashvish.
Ulug‘ bobom aytgan so‘zi bor bo‘lgay,
Olam ahli bir-biriga yor bo‘lgay.
Oy chehrasi yonimda, falak menga so‘z qotdi,
Dilimning munavvari ul mohitobon kerak.
Ko‘rganing Bog‘i Eram, gar oshiqsan, ey Ashur,
Navoiydek bir dilkash, suhbati jonon kerak.

Ashurali BOYMUROD,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

NAVOIY G‘AZALIGA MUXAMMAS

Necha gulchehralar ko‘rdim, alar hushimni band etmas,
Magar hushimni band etsa, nechun ruhim baland etmas,
Vale gulyuzlig‘im manga boqib bir bor suxan etmas,
Meni men istagan o‘z suhbatig‘a arjumand etmas,
Meni istar kishini suhbatin ko‘nglim pisand etmas.

Falakdin boqdi chun hayron, ko‘zi giryon bo‘lib Zuhro,
Qamardan shu’lalar oqmish, qiyos et nuqradan nuqra,
Agarkim shoshdi ohimdin malakyuz, ne malak chehra,
Ne bahra topqamen andinki, mandin istagay bahra,
Chu ulkim bahraye andin tilarmen, bahramand etmas.

Eramning qushlari gungdir, mening ishqiy bayotimg‘a,
Ki ashkim qon kabi tommish qurib turg‘on davotimg‘a,
Necha Majnun tasannoda bu sabr-u, bu sabotimg‘a,
Netay hur-u pari bazminki, qatlim yo hayotimg‘a,
Ayon ul zahri chashm aylab, nihon bu no‘shxand etmas.

Necha yil, oyni o‘tkardim naf’ ko‘rmay saodatdin,
Yurib bebahra, befoyda samar topmay saxovatdin,
Duoda tong sahar qotdim xabar yo‘qdir ijobatdin,
Kerakmas oy ila kun shaklikim husni malohatdin,
Ichim ul chok-chok etmas, tanim bu band-band etmas.

Jafo bog‘inda uy qurdim, sitam bog‘i diyorimkim,
O‘zimdurman mug‘anniy, zulmi hijron qo‘lda torimkim,
Valekin chekmam afsuslar, sanamda ixtiyorimkim,
Kerak o‘z chobukiqotil va shi majnun shiorim kim,
Buzug‘ ko‘nglimni o‘zga yerda javloni samand etmas,

Muhabbat chehrasi pinhon, ki armon chehrasi zohir,
Falakning rishtasi chalkash, zamonning yuklari og‘ir,
Sabab yer bag‘rida ayro yoturlar Zuhra ham Tohir,
Ko‘ngil o‘z charxi zolidin, firibin yemakim oxir,
Ajal sarrishtasidin o‘zga bo‘ynung‘a kamand etmas.

Kechib davron nishob o‘tsa oyingdan oy, ro‘zingdan ro‘z,
Dilingni o‘rtabon o‘ylar sahar shom-u, kecha-kunduz,
Farog‘at topmading, ey Nur, necha iyd-u, necha Navro‘z,
Ul oy o‘tlug‘ yuzin ochsa, Navoiy, tegmasin deb ko‘z,
Muhabbat tuxmidin o‘zga ul o‘t uzra sipand etmas.

Nurali JALIL,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

ISHQ VA IDROK MANBAI

Komil inson bo‘lmoq istasang,
Ilm durrin termoq istasang,
Hayotingga chiroq istasang,
Navoiyni o‘qimoq kerak,
Navoiyni uqimoq kerak.

She’riyatning sheri-sultoni,
“Xamsa” uning buyuk dostoni,
Bizga meros qancha devoni,
Navoiyni tinglamoq kerak,
Navoiyni anglamoq kerak.

O‘qiganing sari uqasan,
O‘zligingni, inon, topasan,
Sen ilohiy ishqqa yetasan,
Navoiyni o‘qimoq kerak,
Navoiyni uqimoq kerak.

El-ulusga baxsh etgan borin,
G‘azalda deb bilgan u yorin,
Azizlayman bugun Hirotin,
Turkiy elning yuzi Navoiy!
Turkiy elning so‘zi Navoiy!

Abduvoit SHERMANOV

HAZRAT NAVOIY...

Moziyning qa’ridan keladi sado,
Mahzun kuyin chertar tinmayin sato,
Ko‘ngilni ovutar yoqimli navo,
Hazrat Navoiyning ruhi shod bugun,
Ruboiy, g‘azallar kuylanar bu tun.

So‘z mulkin sultoni, sherdir nazmda,
“Qaro ko‘z”larini kuylar bazmda,
Avlodlar dovoni har dam ta’zimda,
Hazrat Navoiyning ruhi shod bugun,
Ruboiy, g‘azallar kuylanar bu tun.

Har bir dostonlari asl javohir,
Hayratlangaydursan, o‘qib birma-bir,
Olamga ulashdi ilmini axir,
Hazrat Navoiyning ruhi shod bugun,
Ruboiy, g‘azallar kuylanar bu tun.

Ikki misra baytiga Lutfiy bo‘ldi lol,
E’tirof ayladi Turbatiy Kamol,
Navoiysiz nazm bo‘lmas, ehtimol,
Hazrat Navoiyning ruhi shod bugun,
Ruboiy, g‘azallar kuylanar bu tun.

Mudom porlagaydir buyuk timsoli,
Hidoyatga chorlar ilm-u ziloli,
Kunduz quyosh, tunda mo‘jaz hiloli,
Hazrat Navoiyning ruhi shod bugun,
Ruboiy, g‘azallar kuylanar bu tun.

Munira SULTON

ALISHER NAVOIY “SEGOH”IGA FIKR-MULOHAZALAR

Alisher Navoiyning ushbu g‘azali xol-u xat-husn so‘zlariga asoslangan holda boshdin-oyoq yorga bevosita murojaat usulida yozilgani bois ta’sir kuchi shunga yarasha dilga kirib boradigan.

1. *Ey yor, xol-u husning xayolidan ko‘zimga goh xol, goh g‘ubor tushadi.* Bir ma’nosi quyoshga qaragan odamning ko‘zi oldida qora nuqta paydo bo‘lib, yaxshi ko‘ra olmay qoladi. Shunday ekan, men hali husn-u xolingni ko‘rmasdan shunchaki uning xayoliga berilsam ham ko‘zimda qora nuqta paydo bo‘ladi, agar o‘zini ko‘rsam ko‘r bo‘lib qolsam kerak. Bu xuddi Xudoga yuzingni ko‘rsat, deganida, sen tog‘ tomonga qara, o‘sha joyga nazarim tushadi va tog‘ning ahvolidan o‘zingni nimalar kutayotganini anglab olarsan, deganiga o‘xshash misol. Yana boshqa ma’nosi, xol-u xatting xayoliga berilsam, kelayotgan xatarlar ham ko‘rinmay, ko‘zimga g‘ubor tushadi. Odamning eng ko‘p himoya qiladigan a’zosi ko‘z hisoblanadi. Ana shu ko‘zini himoya qilishni ham unuttiradigan xayol bu – Yorning xol-u husni ekan.

2. Yuzing bir oppoq varaq bo‘lsa, xoling unga tomgan siyohga o‘xshaydi. Oq varaqda qora dog‘ qanchalar ajralib ko‘rinsa, xoling malohati ham ana shunday qudratli.

3. Jonimni o‘rtagan yuz-u xoling ekanini bilmasang, husning alangasidan uchib so‘ngan uchqunga qiyosla. Uchqun o‘chadi, ammo boshqa bir olovni yoqishga ulguradi.

4. Ko‘ngillarda xoling xayolinimi yo kipriklaring tikonlarin ustuvor qilganmisan, bilmasman.

5. Har dam ko‘nglim halok-u ko‘zim tiyra, qorong‘i bo‘lishini yori sho‘x va xoldorlar yaxshi biladi.

6. Xol-u husningni taqdir pardozchisi yaratgan bo‘lsa, menda qanday ixtiyor bo‘lsin?

7. Bechora Navoiy labing xolini ko‘rsa, jon beradi, uning bu ahvoliga bir boqsang, ne bo‘lardi, ey nigor?

Tahlil

Xorazm “Segoh”i ko‘p asrlardan beri Alisher Navoiyning ushbu g‘azali bilan aytib kelinadi. Boshqa g‘azallar qo‘yilmagan. Boshqa maqomlarga turli g‘azallar qo‘yib aytishlar uchraydi.

“Shashmaqom”ning “Rost”, “Navo”, “Buzruk”, “Dugoh”dan keyin keladigan beshinchi shu’basi “Segoh” hisoblanadi. “Shashmaqom”ni bir kecha-kunduzga o‘xshatishadi. “Dugoh” kunning o‘rtasi, peshinni bildirsa, “Segoh” shom pallasini anglatadi. “Segoh”ni “tani maqom” – maqomning butun vujudi deyishadi. “Sarahbor” – shashmaqomning boshlanishi bo‘lsa, “Segoh” o‘zigacha bo‘lgan barcha musiqiy pardalar, usullarni o‘ziga singdirgan hisoblanadi.

“Segoh”ni joyiga qo‘yib ijro eta oladigan hofiz “Shashmaqom”ning barcha shu’balarini ijro eta oladigan quvvatga ega bo‘ladi. “Shashmaqom” imtihonlarida “Segoh” yiqituvchi devor bo‘lib, ko‘plab xonandalar undan o‘ta olmay yiqiladi. Maydonda eng baquvvat hofizlargina qoladi. Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Olmaxon Hayitova, Otajon Xudoyshukurov, Bobomurod Hamdamov, Ortiq Otajonovdan keyin ham “Segoh”ni o‘rniga qo‘yib ayta oladigan bir qator yosh hofizlar paydo bo‘lmoqda.

Olloyor Begaliyev – XO‘JANDIY,
O‘zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a’zosi

Ajdodlar merosi

TARIXGA TUTASHGAN SUHBAT

Zahiriddin Muhammad Bobur nomi xalqimiz tarixida alohida ehtirom bilan tilga olinadi. Uning davlat boshqaruvidagi salohiyati, adabiy merosi va ma’naviy olami asrlar osha yanada qadri yuksak xazinaga aylanmoqda. Biz ushbu suhbatda tarixiy xotira, shajara, oilaviy muhit va ma’naviy mas’uliyat haqida fikr yuritamiz. Suhbatdoshimiz ajdodlar merosini qadrlab yashayotgan vatandoshlarimizdan biri.

– Assalomu alaykum! Dastavval, bir narsani alohida ta’kidlab o‘tishim kerak, buyuk bobokalonimiz, betakror ijodkor Zahiriddin Muhammad Bobur avlodining davomchisi, vatandoshimiz Zayniddin Mavlonov bilan suhbatlashish baxti nasib etganligidan nihoyatda mamnunman.

Ilk savolim shundan iboratki, buyuk tarixiy shaxs, odil hukumdor, qolaversa, benazir ijodkorning avlodi ekanligingiz qalbingizda qanday tuyg‘ularni uyg‘otadi?

– Vaalaykum assalom. Men bilan suhbat qilishni lozim topganingizdan, e’tirof etganingizdan benihoya xursand bo‘ldim. Savolingizga keladigan bo‘lsak, albatta, Zahiriddin Muhammad Bobur-dek buyuk bir sarkarda, benazir ijodkor bobomizning avlodidan ekanligimdan ich-ichimdan faxr va iftixor tuyg‘ularini his qilaman. Avvalo shuni aytib o‘tmoqchimanki, bilasiz, Bobur bobomiz temuriylar avlodidan bo‘lganlar. Bizlar o‘zbeklarning barlos urug‘idan bo‘lamiz. Sohibqiron Amir Temurning uchinchi o‘g‘li Mironshoh Mirzodan davom etgan avlodmiz. Sizga yanayam to‘liqroq tushuntiradigan bo‘lsam, shajara ketma-ketligi mana bunday: Temur – Mironshoh Mirzo – Sulton Muhammad Mirzo – Abu Said Mirzo – Umarshayx Mirzo – Bobur Mirzo – Humoyun Mirzo – Akbarshoh – Jahongir Mirzo – Shohjahon – Avrangzeb – Muazzam shoh – Jahondor shoh – Muhammad shoh – Shoh olamiki – Aligavhar – Akbari Soniy – Abu Zafar Bahodir shoh – Shahzoda Mirxazor – Nosiriddin Mirzo. Men Nosiriddin Mirzoning o‘g‘illari, ya’ni boburiylar sulolasining o‘n beshinchi avlodiman. Albatta, yuqorida aytib o‘tganimdek, men bundan faxrlanaman. Qolaversa, jannatmakon vatanimda yashayotganimdan, tinch va osuda hayot kechirayotganimdan, el-xalqimizdan minnatdorman.

– Zayniddin aka, siz boburiylar avlodi davomchisi sifatida ko‘plab tadbirlar, uchrashuvlarga taklif etilasiz. Ayting-chi, ana shunday uchrashuvlarda sizni boburiylar sulolasidan qaysi bir bobongizga ko‘proq o‘xshatishadi?

– Bu savolingizning javobi o‘laroq bir voqeani aytib bersam. Men 2007-yil Hindistonning O‘zbekistondagi elchisi Iskan Rajiv Toyal bilan uchrashganman. Shu uchrashuvda elchi janoblari tarjimonga qarab: “Bahodir Shohning chevarasi mana shu bo‘ladi”, deb meni ko‘rsatdi. Tarjimon fan doktori, professor Ansoriddin Ibrohim edilar. U kishi olamdan o‘tib ketdilar. Mendan so‘radilar: “Siz elchini tanirmidingiz?”. Men: “Yo‘q, tanimas edim”, deb javob berdim. “E, tushundim. Siz ularning oldilariga VIZA uchun kirgansiz”, dedilar. “Yo‘q, men ularning oldilariga umuman kirmaganman”, deb javob bergandim o‘shanda. Ansoriddin Ibrohim hayratlanib: “Ular sizni qanday qilib tanidilar?”, dedi. Xuddi shu savolni elchi janoblaridan ham so‘ragandilar, ular aytdilarki: “Menga hech qanday izohning hojati yo‘q. Bobosining aynan nusxasi bo‘lib turibdilar”, dedi. Suhbat davom etib, mendagi ba’zi bir suratlarni ko‘rgach, yana so‘ragandilar: “Bu kim o‘zi?” deb. Tarjimon: “Akbar, Shohjahon, Avrangzeb, Bahodir shoh…” deb davom ettirayotgandilar... “Yo‘q, shoshmang, bu xuddi o‘zi bo‘ladi”, dedilar-da, meni bag‘rilariga bosib: “Boburning avlodlaridan Angliya, Pokiston, Afg‘oniston, Hindistonda bunaqa avlodlar yo‘q. Faqatgina Boburning ota tomon avlodlaridan bular qolibdi” deya ta’kidladilar. Bolalik paytlarimda onam rahmatli doim takrorlardilar: “Sizlar Zahiriddin Muhammad Bobur bobomizning ota tomonidan avlod davomchilarisizlar”, deb. Savolingizga javobim shunday bo‘ladiki, ko‘proq Avrangzeb, Bahodir shoh bobomizga o‘xshatishadi.

– Javobingiz uchun rahmat. Navbatdagi savolim, bilamizki, har qanday iste’dod insonga qondan o‘tadi, degan gap bor. Sizda ham qandaydir ijodiy jihatlar shakllanganmi yoki bo‘lmasa yuqqanmi? Agar shunday bo‘lsa, marhamat, biz bilan bo‘lishsangiz?

– Savolingizni tushundim. Men avvaliga texnikumda, so‘ng institutda tahsil oldim. Kasbim mexanik-injener. Ammo bizning oilaviy muhitimiz adabiyotga, ijodga oshufta bo‘lgan, desam, ayni haqiqatni aytgan bo‘laman. 1930-yillarda dadam rahmatlini Buxoro viloyatidan bolalikdagi hovlimiz – o‘sha paytlarda Toshkent viloyatiga qarashli bo‘lgan Mirzacho‘lga, ayni paytda Sirdaryo viloyatining Boyovut tumaniga surgun qilib yuborishgan. O‘sha paytlarda bunday illatlar avj olgan davr bo‘lgan. Faqatgina dadamni emas, Qashqadaryodan, Turkmanistondan, Samarqanddan, vodiydan judayam ko‘pchilikni surgun qilishgan. Dadam u vaqtda o‘ttiz uch yoshda bo‘lganlar. Ular madrasada tahsil olganlar, fors, arab tillarini mukammal bilganlar, ilmli inson bo‘lganlar. O‘z zamonasida brigadir deymizmi, boshliq deymizmi, shunaqa darajada el-xalqqa boshchilik qilib yurganlar. 1936–1937-yillarga kelib, qatag‘on boshlanadi. Siz-u biz tanigan ilm-ma’rifat egalari: Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev kabi ziyolilar otuvga hukm qilingan. Fayzulla Xo‘jayev bilan dadamlar tengdosh bo‘lishgan, birga tahsil olishgan. Fayzulla Xo‘jayevni otishganidan keyin 1937-yilda dadamni ham qamoqqa olishgan. Shunda bizning uyimizda nimaiki tarixiy hujjatlar, kitoblar bormi, hattoki to‘rt yuz yil ilgari chop etilgan “Boburnoma” kitobini ham yig‘ishtirib olib ketishgan. Ketar chog‘da dadam rahmatli onamlarga qarab: “Mening gunohim yo‘q. Tezda qaytib kelaman”, deganlar. Oradan yillar o‘tib, 1945-yilda qaytib kelganlar. O‘sha paytda Usmon Yusupov Boyovutning ikkinchi sovxoziga rahbar bo‘lib kelganlarida dadamni soliq tizimiga rahbar qilib ishga qo‘yganlar. Otamning faoliyati shunday davom etgan. Men 1950-yilning 14-avgustida tug‘ilganman. Oilada besh o‘g‘il, uch qiz bo‘lganmiz. Uch yoshdaligimda dadam rahmatli otga mindirib, Olim ismli mo‘ysafid odamning oldiga olib borardilar. U kishi har kuni gapni temuriylardan boshlab, boburiylar avlodigacha tushuntirib, biz kimning nasli, davomchisi ekanligimizni qulog‘imga quyardilar. Xullas, oilamizda adabiyotga, ijodga e’tibor o‘zgacha bo‘lgan. Uyimizga qo‘ni-qo‘shnilar, yaqinlarimiz, hatto Toshkentdan ham mehmonlar kelib turishardi va kitobxonlik bayramlari bo‘lardi. Kim qaysi kitobni o‘qigan, kimdir g‘azalxonlik qilgan, kimdir esa tarixdan so‘zlayotgan bo‘lardi. Shu paytlarda onam shunday deb takror-takror tayinlardilar: “Nima bo‘lgandayam birortasi so‘rab qolsa, kimning avlodi ekanligingni hech kimga aytma. So‘rasalar, ha, oddiy ishchilar oilasidanman, deb qo‘yaver”. Bu oilamizning yozilmagan qoidasi bo‘lgan.

– Barchamizga tarixdan ma’lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda boburiylar sulolasiga asos solgan. O‘zbek xalqi bilan hind xalqini birlashtirgan. Ularning avlodlari hozirgi kunda Hindistonda ham istiqomat qilib kelishadi. Savolim shuki, ular bilan o‘zbekona munosabat, qandaydir bordi-keldi bormi?

– Savolingizga quyidagicha javob beraman. Men Hindistonga bir necha marotaba bordim. Bobur, Humoyun, Shohjahon bobolarimizning davrida qurilgan qadimiy obidalarni, o‘sha yerda abadiyga qo‘nim topgan ajdodlarimizning maqbaralarini ziyorat qildim. Bir safar borganimda masjidga kirdim. Namozimni o‘qib qaytib chiqqanimda bir necha hind millati vakillari meni ko‘rib hayratdan qotib qolishdi va o‘zlarining tillarida: “Kimsan? Qayerdansan? Qayerdan kelding?”, deyishdi. Men ularga: “Men boburiylar avlodidanman, Shohjahonning avlodi davomchisiman” deb javob berdim. Shunda ular: “Ha, demak, mo‘g‘ulsan” deyishdi. Men bo‘lsam: “Yo‘q, men mo‘g‘ul emasman, o‘zbekman” dedim. Shunda ulardan biri o‘zlarining milliy liboslaridan bo‘lgan shohona ustbosh kiydirishib: “Ha, endi xuddi bobongga o‘xshading”, degandilar.



Bobur bobomizning qiz tomondan avlodlari Hindistonda haligacha bor. Lekin ular sharoit taqozosi bilan hind millatiga mansub bo‘lib ketishgan. Men ular bilan ko‘rishishni, oilaviy munosabatda bo‘lishni xohlayman, biroq bu haligacha nasib etmagan. Nasib bo‘lsa, ko‘rishib, gaplashib, munosabat o‘rnatish niyatimiz yo‘q emas.

– Rahmat, Zayniddin aka. Siz bilan suhbatlashish baxti bizga nasib etganidan benihoya xursandmiz. Gapning ochig‘i, suhbatimizni ko‘proq davom ettirgim kelayapti, ammo vaqt oliy hakam, deydilar. Shunday ekan, sizga bekobodliklar nomidan oilaviy baxt, tinchlik-xotirjamlik, mustahkam sog‘lik, uzoq umr tilab qolamiz. Sizning ham bekobodlik gazetxonlarga aytajak so‘zlaringiz bo‘lsa, marhamat.

– Avvalo, mana shunday jannatmonand, jonajon O‘zbekistonimizga ko‘z tegmasin! Tinchlik-osoyishtalik bo‘lsin! Bekobodlik qadrdonlarimizga omonlik tilayman. Hamisha salomat bo‘lsinlar. Yaxshi kunlarda yuz ko‘rishishlik nasib etsin. Barchangiz uchun hamisha duodaman. Rahmat.

Mirzabek SHERBEKOV
suhbatlashdi.

QILICH VA QALAMNING CHINAKAM SOHIBI



Milliy iftixor

Hayot insonni chinakam komillik sari olg‘a intilishiga osonlikcha yo‘l ochib bermas ekan. Ushbu fikrga kelishimning sabablari bor, albatta. Misol uchun, o‘zidan yaxshi nom qoldirgan, ezgu ishlar qilgan, xalqning manfaati uchun xizmat qilish darajasidagi yangi loyihalar, kashfiyotlar mualliflarining hayoti va ijodi haqida qiziqib ko‘rganimda ularning deyarli barchasi turli xil sinovlar qurshovidan sabr va matonat bilan o‘z jonlarini xatarga qo‘yib bo‘lsa-da, oldilariga qo‘ygan maqsadlaridan aslo chekinmaganlar

Maktabda o‘qib yurgan kezlarimizda bunday oliyjanob, qat’iyatli, sabr-bardoshli va oqil bobokalonlarimizning bir nechtasi bilan adabiyot darsliklarida tanishganmiz. Ammo bolalik qilibmi yoki erkalikmi, ko‘plarining zalvorli va zahmatli hayotlariga jiddiy e’tibor qaratmagan ekanman. Voyaga yetib, aqlim biroz to‘lishgach, o‘zligimizni anglash, bizni kaftida ko‘tarib kelayotgan bu tabarruk zamin xalqimiz hayotiga go‘zallik va fusunkorlik baxshida etguvchi qanday buyuk shaxslarni beshik bo‘lib tebratganligiga qiziqib, bir nechta kitoblarni mutolaa qilishga urindim.

Kunlardan bir kun dadam rahmatlining kitob javonida dunyoga mashhur asarni, ya’ni “Boburnoma”ni ko‘rib qoldim. Ushbu asar jahon adabiyoti durdonalaridan biri ekanligini bilardim, ko‘p eshitgandim. Rosti, uni o‘qishga harakat qildim, ammo to‘liq mazmun-mohiyatini anglab yetmadim. Chunki mazkur asar bizning hozirgi so‘zlashuv tilimizda emas, balki o‘sha davrdagi sof o‘zbek-turkiy tilida yozilgan edi. Ba’zi bir joylariga tushungandek bo‘ldim va Zahiriddin Muhammad Boburning hayotiga oid adabiyotlarni topib o‘qidim. Ular qatorida O‘zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asari alohida ajralib turadi. Ushbu asar asosida taniqli kinoijodkorlar tomonidan ajoyib videofilm ham ishlab chiqilgan edi. Filmda O‘zbekisonda xizmat ko‘rsatgan artist, sohirnafas ijodkor Ma’murjon To‘xtasinov (Alloh rahmatiga olsin) tomonidan Boburning quyidagi g‘azali betakror qo‘shiq bo‘lib yangraydi.

Kim ko‘rubtur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshilig‘,
Kimki ondin yaxshi yo‘q, ko‘z tutma ondin yaxshilig‘.

Bu zamonni nafi qilsam ayb qilma, ey rafiq,
Ko‘rmadim hargiz, netayin, bu zamondin yaxshilig‘.

Dilrabolardin yomonliq keldi mahzun ko‘ngluma,
Kelmadi jonimg‘a hech oromi jondin yaxshilig‘.

Ey ko‘ngul, chun yaxshidin ko‘rdung yomonlig‘ asru ko‘p,
Emdi ko‘z tutmoq ne ya’ni har yomondin yaxshilig‘.

Bori elga yaxshilig‘ qilg‘ilki, mundin yaxshi yo‘q
Kim, degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig‘.

Yaxshilig‘ ahli jahonda istama Bobur kibi,
Kim ko‘rubtur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshilig‘.

Shu o‘rinda unutilmas siymo Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi ayrim ma’lumotlarni sizlarga ham ilinmoqchiman.

Zahiriddin Muhammad Bobur – o‘zbek va jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk shaxs, davlat arbobi, qo‘mondon, shoir va mutafakkirdir. U nafaqat Markaziy Osiyo, balki Hindiston tarixida ham muhim o‘rin tutadi. Bobur asos solgan boburiylar sulolasi bir necha asrlar davomida Hindistonni boshqarib, uning siyosiy, madaniy va ma’naviy taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijon shahrida tug‘ilgan. U temuriylar sulolasining vakili bo‘lib, otasi Umarshayx Mirzo Farg‘ona hokimi edi. Bobur yoshligidan ilm-fan, adabiyot va harbiy ishga qiziqib ulg‘ayadi. 1494-yilda, otasining vafotidan so‘ng 12 yoshida Farg‘ona taxtiga o‘tiradi. Biroq u davrdagi ichki nizolar va tashqi bosimlar sababli Bobur uchun hokimiyatni saqlab qolish oson bo‘lmaydi. Otasidan keyin unga qimmatli maslahatlari bilan ko‘maklashgan Qosimbek Boburning yaqin kishilaridan biriga aylanadi. Samarqand uchun olib borilgan kurashlar, mag‘lubiyatlar va muvaffaqiyatlar uning hayotida muhim o‘rin tutdi.

Markaziy Osiyoda mustahkam davlat tuzish imkoni qolmaganini anglagan Bobur diqqatini janubga, ya’ni Hindiston tomonga qaratdi. 1526-yilda Panipat jangida Dehli sultoni Ibrohim Lodiyni mag‘lub etib, Hindistonda boburiylar sulolasiga asos soldi. U nafaqat buyuk qo‘mondon, balki nozik hisli shoir va yozuvchi ham edi. U o‘zbek (chig‘atoy) va fors tillarida ijod qilgan. Bobur ijodining eng mashhur namunasi – “Boburnoma” asaridir.

“Boburnoma” – memuar asar bo‘lib, unda muallif o‘z hayoti, yurishlari, siyosiy voqealar, tabiat, shaharlar, xalqlar urf-odatlari haqida jonli va haqqoniy ma’lumotlar keltiradi. Asar nafaqat tarixiy, balki adabiy jihatdan ham yuksak qadrga ega.

Boburning g‘azal va ruboiylarida hayot, vatan sog‘inchi, muhabbat, taqdir va inson qalbi kechinmalari aks etgan. U Navoiy an’analarini davom ettirgan holda o‘z uslubini yaratgan shoir sifatida e’tirof etiladi. Bobur asos solgan boburiylar sulolasi Hindistonda 1526-yildan 1858-yilgacha hukmronlik qildi. Bu sulola tarixda “Buyuk Mo‘g‘ullar” nomi bilan ham mashhur. Boburdan keyin taxtga uning o‘g‘li Humoyun chiqdi, keyin esa Akbarshoh, Jahongir, Shohjahon va Avrangzeb kabi yirik hukmdorlar davlatni boshqardi. Boburiylar sulolasining davlat boshqaruvini uzoq yillar idora etgan hukmdor bu – Avrangzeb edi. U davlatni ellik yil mobaynida adolatli boshqaradi.

Boburiylar davrida Hindistonda markazlashgan davlat shakllandi, iqtisod, savdo, fan va san’at ravnaq topadi. Ayniqsa, me’morchilik sohasida yuksak yutuqlarga erishildi. Dunyoga mashhur Toj-Mahal maqbarasi Shohjahon davrida barpo etilgan bo‘lib, mazkur inshoot boburiylar madaniyatining yorqin namunasidir.

Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur butun bir hayoti davomida qilichni ham, qalamni ham o‘z vaqtida mohirona ishlata bilgan. Kimdir uning temuriylar avlodi davomchisi, taxt vorisi, qisqa qilib aytganda, talabchan hukmdor sifatida e’tirof etsa, kimlardir uning nafis va betakror ijodi tufayli nozikqalb sohibi, she’r va g‘azallar muallifi ekanligini faxr bilan tilga oladi. Uning ijodini haligacha dunyo olimlari o‘rganib kelmoqdalar.

Mirzabek SHERBEKOV,
Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi
Bekobod tuman bo‘linmasi
bosh mutaxassisi

Boburga bag‘ishlov

VATAN XAYOLI

Uchib ketdi olamga Oqsaroydan oq xatlar,
Oq xatlar emas ular – sog‘inch, firoq, hasratlar,
Ruh-u jonimga tutash mulki so‘ngsiz sarhadlar,
Hazrat Sohibqironning toza niholi Bobur.

Bori elga yaxshilik qilmoq nadir, bildik biz,
Siz Hind sori ketdingiz, siz sorig‘a yeldik biz,
Siz Vatanga keldingiz, siz tomonga keldik biz,
Oh, bunchalar yorug‘dir Vatan xayoli, Bobur.

Vatandan mujda kelsa, ayting qanda jon qoldi?
Shirin qovun ta’midan na-da tanda jon qoldi,
Samarqandda dil qoldi, Andijonda jon qoldi,
Bir mard yurt deb yig‘lasa, tutgay uvoli, Bobur.

Kishi g‘arib ko‘nglini tushungaydir g‘urbatda,
G‘urbat – bu g‘ariblikdir, g‘am-anduhdir, albatta,
Inson bilmas ne sir bor, dunyo degan turbatda,
Idrok etdim, bu kimning javob-savoli, Bobur.

To‘xtamaydi Jayxunday so‘zi – hayot kitobi,
Har ko‘ngilda mavj urar, uning shiddat, shitobi,
Mahshargacha yangragay haq yo‘lida xitobi,
Shundan doim balanddir dard-u iqboli, Bobur.

Aytgan bilan tugamas, jon-jonimning jon so‘zi,
Vatanim, millatimning har o‘g‘loni, har qizi,
Hazrat bobolarimning qutlug‘, muborak izi,
Humoyun, ham Gulbadan, Komron, Hindoli Bobur.

Manim yonib aytganim bir xatti jahon bo‘lgay,
Bo‘yi ko‘kka yetgan sarv, tik qaddi jahon bo‘lgay,
Poydevori mustahkam, zo‘r saddi jahon bo‘lgay,
Jannatlardan xush nasim yurtim shamoli, Bobur.

Uchib ketdi olamga Oqsaroydan oq xatlar,
Oq xatlar emas ular – sog‘inch, firoq, oh xatlar,
Ruh-u jonimga tutash mulki so‘ngsiz sarhadlar,
Hazrat Sohibqironning toza niholi Bobur.

G‘ayrat MAJID

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz:
"Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr ko'rsatkichi 7013.

Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma №
Adadi 1800 nusxa. "NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. "Mash'al" mahallasi, Markaz -1
Bosishga topshirish vaqti: 10:00.
Bosishga topshirildi: 11:00.

Sahifalovchi-dizayner
Shohida TO'RAQULOVA

ISSN 2091-5497